Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGINING 35 YILLIGI

Tilda, fikrda, ishda birlik!

جديد

Jadid

2026-yil 28-avgust
№ 35 (139)
www.jadid.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

YETTIKUNLIK

DO‘STLIK VA JO‘MARDLIK AYYOMI

“...Kavokib sayrini shab to sahar bedor o‘landan so‘r” deb lutf etgandi buyuk turkiy shoiri Fuzuliy hazratlari. Darhaqiqat, ayni zamonda dunyoda kechayotgan oshkor va gizli evrilishlarni qalb ko‘zi teran, tafakkur charog‘i nurafshon uyg‘oq insonlargina ilg‘aydi. Yurtimizda va tevarak-atrofda ro‘y berayotgan olamshumul yuksalish va o‘zgarishlarni his qilish va qiyosan xulosayi xolis chiqarish uchun teran nigohning o‘zigina kifoya bo‘lmay, idrok yetagidagi insof va shukrona ham joiz. Ulug‘ ayyom arafasida biz kuni kecha ro‘y bergan muhim hodisa – o‘zbek va ozarbayjon qardoshlar hamkorligi misolida yangi tarixiy sahifaga nazar solamiz.

* * *



Bugun O‘zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari tarixiy yuksalishni boshdan kechirmoqda. Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkazning ikki muhim davlatlari o‘rtasidagi muloqotlar rasmiy ittifoqchilikdan Abadiy do‘stlik darajasigacha ko‘tarildi. Prezident Ilhom Aliyevning davlat tashrifi davomida imzolangan Abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi shartnoma va Oliy davlatlararo kengash qarorlari ortida shunchaki siyosiy kelishuvlar emas, balki xalqlarimizning ming yillik orzu-intilishlari, mushtarak kelajakni birgalikda barpo etishdek ezgu orzulari mujassam.

“Abadiy do‘stlik shartnomasi” – bu davlatlarning kelajak avlodlariga tinchlik, yaxshi qo‘shnichilik va xavfsizlikni meros qilib qoldirish haqidagi oliy darajadagi siyosiy va huquqiy va’dasidir. Prezident Ilhom Aliyevning O‘zbekistonning oliy mukofoti – “Oliy Darajali Do‘stlik” ordeni bilan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning esa Ozarbayjonning eng yuksak mukofoti – “Haydar Aliyev” ordeni bilan taqdirlangani bu ikkiqardosh xalqning bir-biriga bo‘lgan samimiy ehtiromi va e’tirofining yaqqol tasdig‘i bo‘ldi.

Diplomatik amaliyotda davlat tashrifi davlat rahbarining xorijiy tashriflarining eng yuqori shakli bo‘lib, o‘z protokol maqomiga ko‘ra rasmiy va amaliy tashriflar, tranzit safarlar hamda xalqaro sammitlarda ishtirok etish uchun amalga oshiriladigan tashriflardan ustun turadi. Shu kungacha Ozarbayjon va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar tarixida bunday darajadagi davlat tashriflari 2022 va 2024-yillarda bo‘lib o‘tgan edi.

Muloqotlarning bunday tez-tezligi ikki yetakchiga ikki tomonlama va xalqaro kun tartibidagi masalalar bo‘yicha muntazam ravishda fikr almashish imkonini beradi. Bu yerda Ilhom Aliyev bir necha bor do‘stlik, o‘zaro hurmat va ishonch munosabatlari deb baholagan ikki yetakchi o‘rtasidagi shaxsiy muhit ham muhim ahamiyatga ega. Aynan ushbu doimiy muloqot Boku va Toshkentga strategik sheriklikdan yanada yaqinroq hamkorlik shakliga tezroq o‘tishga imkon bergan omillardan biri bo‘ldi.

Tashrif jiddiy transport-logistika ko‘lamiga ega bo‘ldi. O‘zbekiston uchun Ozarbayjon Janubiy Kavkazdagi oddiy hamkor emas, aksincha, Kaspiy, Kavkaz, Turkiya va undan keyin Yevropa bozorlariga chiqishning asosiy yo‘llaridan biridir. Ozarbayjon uchun esa O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi eng muhim hamkorlardan biri va O‘rta koridor uchun muhim yuk bazasi manbayi sifatida namoyon bo‘lmoqda. 2024-yildayoq ikki mamlakat o‘rtasidagi tranzit tashishlar 18 foizdan ko‘proqqa o‘sdi. Biroq uzoq muddatli istiqbolda yuklar hajmini oshirish bilan cheklanib qolinmaydi.

Boku Alyat porti quvvatlarini, rivojlangan temir yo‘l tarmog‘ini, muhim transport koridorlarini va g‘arb bozorlariga bevosita chiqish yo‘llarini taklif etayotgan allaqachon shakllangan logistika zanjiri Toshkent uchun o‘z jadal o‘sayotgan iqtisodiyoti yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish nuqtayi nazaridan strategik manfaat kasb etadi.

Toshkent Markaziy Osiyodagi eng yirik aholiga, jadal o‘sayotgan iqtisodiyotga hamda butun mintaqaning asosiy logistika va sanoat markazlaridan biriga, uzoq muddatli istiqbolda esa to‘laqonli o‘rtacha qudratli davlatga aylanish bo‘yicha jiddiy ambitsiyalarga ega.

(Davomi 2-sahifada).

Shavkat MIRZIYOYEV:

35 yil – tarix uchun juda qisqa davr. Lekin ortda qolayotgan yillar o‘zining ko‘lami, yutuq va natijalari bilan asrga tatigulik davr bo‘ldi, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu o‘zgarishlarning haqiqiy muallifi – mehnatkash va oliyjanob xalqimizdir.



* * *

O‘tgan davrda mamlakatimizga 160 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiya kirdi. Iqtisodiyotimiz 2,5 barobardan ziyod ko‘paydi. Joriy yil yalpi ichki mahsulot hajmi 180 milliard dollardan oshishi kutilmoqda.

* * *

Sanoat tarmoqlari, servis va qishloq xo‘jaligi sohalarida 5 million 700 ming doimiy ish o‘rni yaratildi. Davlat va xususiy sektor ishtirokida 1 million 200 ming o‘rinli zamonaviy maktab, 342 ming o‘rinli bog‘cha va 62 ming o‘rinli shifoxonalar ishga tushirildi.

* * *

Odamlarning uzog‘ini yaqin qilish uchun 83 ming kilometr umumiy foydalanishdagi ichki yo‘llar qurildi va ta’mirlandi. Hududlarda 8 million aholi yashaydigan xonadonlarga ilk bor markazlashgan ichimlik suvi kirib bordi, yana 11,5 million aholining suv ta’minoti yaxshilandi.

* * *

O‘tgan o‘n yilda 650 ming oila yangi zamonaviy uy-joyga ega bo‘ldi. Xalqimizda “Uyli bo‘lish – vatanli bo‘lish” degan naql bor. Shu ma’noda, kamida 2,5 million aholi vatanli bo‘ldi!

MAMNUNIYAT

E’TIBOR VA E’TIROF

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shu yil 1-iyun kuni adabiyot, madaniyat va san’at namoyandalari bilan uchrashib, oldimizda turgan eng muhim vazifalarni hamda ijod ahlini qiynab kelayotgan masalalar yechimlarini belgilab berdi. Eng muhimi, tadbirda aytilgan fikrlar, belgilangan ustuvor vazifalar quruq gap bo‘lib qolmadi – ertasi kuniyoq Prezidentimizning “Madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinib, barcha ishlarning mas’ullari, aniq muddatlari, mablag‘lari ham belgilab berildi.

(Davomi 2-sahifada).



FAKT

✓ **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mustaqillikning 35 yilligi munosabati bilan 852 nafar shaxsni avf etdi.**

✓ **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy, Nepal va Pokistondagi insonlar halok bo‘lgan tabiiy ofat va yong‘in munosabati bilan ushbu davlatlar rahbarlariga hamdardlik bildirdi.**

✓ **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga Mustaqillik kuni munosabati bilan AQSH va Kanadada yashayotgan yuzlab vatandoshlarimizdan minnatdorlik va tabrik maktubi keldi.**

✓ **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taklifiga binoan Hindiston bosh vaziri Narendra Modi 29-30-avgust kunlari davlat tashrifi bilan Toshkentga keladi.**

QADRIYAT



OBIDASI

Bugun, O‘zbekiston mustaqilligining o‘ttiz besh yillik tantanalari arafasida ko‘hna Xartang qishlog‘iga nazar tashlagan kishi bu yerda Istiqlolning ma’naviy qudratini ko‘radi. Zero, ozod millat buyuk ajdodlarini xotirada saqlash bilangina cheklanmaydi, balki ularning ezgu merosini xalqimiz va insoniyat kelajagiga yetkazishga intiladi.

Millat Yetakchisi Shavkat Mirziyoyev ushbu majmuaning bosh bunyodkori sifatida faqatgina yirik me’moriy majmua qurish g‘oyasini ilgari surmagan, ayni paytda tarixiy xotirani zamonaviy muzeyshunoslik bilan uyg‘unlashtirgan maktab yaratishni maqsad qilgan.

MUQADDAS MANZIL

Imom Buxoriy dafn etilgan Xartang asrlar davomida muqaddas ziyoratgoh bo‘lib kelgan. Turli davrlarda qabr ustida maqbara, yonida masjid va ziyoratchilar uchun inshootlar barpo etilgan. Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar zamonida Samarqand ilm-u madaniyat markaziga aylanar ekan, ulug‘ muhaddis xotirasiga ehtirom ham yuksak qadriyat sifatida yashab kelgan. Keyingi asrlarda siyosiy va ijtimoiy sharoitlar o‘zgargan bo‘lsa-da, xalqning bu qadamjoga bo‘lgan muhabbati so‘nmagan.

(Davomi 3-sahifada).

VATAN MANZUMASI

BAXT YULDUZIM



O‘ttiz besh yil!
Qahramonlik zamonasi –
“Vatan!” deya urib turgan yurak uchun.
Yangramasa agar hurlik taronasi,
Mardlik nega kerak, jur’at kerak nechun!
Adolatda – Temur, kuchda – Bobur o‘zing,
Jaloliddin shiddatini meros etgan.
Ulug‘bekning yulduzlari – tiniq ko‘zing,
Ilm degan nurni “tun”dan xalos etgan!

O‘ttiz besh yil!
Navqironlik yoshidir bu,
O‘g‘loni mard, qizlari gul – suluv diyor!
O‘zbek degan buyuk elning xislati shu –
Mehmondo‘stlik ila doim shod, baxtiyor!
“Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir,
kuchdir!” – deya
Hayqirgan ul Abdulhamid Cho‘lpon haqqi!
Birdamlikda mehnat qilsak har soniya
Mangulikka muhrlanar yurt ravnaqi!

O‘ttiz besh yil.
Bunyodkorlik yoshidir bu –
Yigit-qizlar maslagida maqsadi bor.
Halol mehnat, halol tuz-u oshidir bu –
Bilagida – kuch, Vatanga bo‘lar mador!
Ona xalqim, ulug‘ yo‘lga chiqding bugun,
Ketmoqdasan taraqqiyot taxti taraf,
Yangi hayot, kelajakni qurmoq uchun
Yagona xalq, yakdil millat bo‘lmoq sharaf!

To tirikman, tanda urib turarkan jon,
“Sen bilanman!” – aziz ahdim, qutlug‘ so‘zim!
Yagonamsan, yurtim, Yangi O‘zbekiston,
Faqat o‘zing – mangu porloq baxt yulduzim!

Shahnoza RAYIMOVA,
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda “Jadid” gazetasining ijodiy ishlar tanlovi qatnashchisi

(Davomi 8-sahifada).

DIL SO‘ZI

MILLAT BAYRAMI

Ayni kunlarda qardosh O‘zbekiston Respublikasi katta millat bayrami – davlat Mustaqilligining 35 yillik tantanalariga tayyorgarlik ko‘rmoqda. Shu munosabat bilan Tojikiston Respublikasi, uning O‘zbekistondagi diplomatik korpusi vakillari, jumladan, o‘zim va oilam nomidan hamisha do‘st o‘zbek xalqini samimiy tabriklayman.

O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganiga 34 yil bo‘ldi. O‘tgan davr oralig‘ida davlatlararo tashqi aloqalar izchil rivojlandi, ikki mamlakat o‘rtasidagi oliy darajali tashriflar dinamikasi o‘sdi. O‘zbek-tojik munosabatlari barqaror rivojlanish sur’atini namoyon etib, hamkorlikning keng ko‘lamli yo‘nalishlarini qamrab oldi. O‘zaro savdo ayirboshlashning o‘sishi, qo‘shma infratuzilmaviy loyihalar istiqboli, va ayniqsa, xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlikning faollashuvi ikki qardosh mamlakat uchun strategik sheriklikning yuksalayotganini ko‘rsatadi.

Mustaqillik davrida hukumatning oqilona siyosati va mehnatkash xalqning sa’y-harakatlari tufayli O‘zbekiston ko‘z o‘ngimizda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishda salmoqli natijalarga erishdi hamda xalqaro munosabatlarda faol ishtirokchi sifatida o‘z o‘rnini mustahkamladi. So‘nggi yillarda muhtaram Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan va Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan jadal islohotlar mamlakat statusini yangi bosqichga olib chiqdi. Qisqa vaqt ichida O‘zbekistonda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishga, ta’lim, madaniyat va sport sohalarida xalqaro maydonda salmoqli natijalarga erishildi. Ayniqsa, keyingi yillarda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar mintaqaviy rivojlanishning umumiy dinamikasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.



Ismatullo NASREDIN,
Tojikiston Respublikasining
O‘zbekistondagi
Favqulodda
va Muxtor elchisi

Shu o‘rinda, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan tashqi siyosatni alohida ta’kidlab o‘tmoqchiman. Xalqaro munosabatlar sohasida O‘zbekiston muhim pozitsiyani egallab, o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, global tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash hamda barqaror rivojlanishga qaratilgan pragmatik va faol tashqi siyosatni amalga oshirmoqda. O‘zbekiston hukumatining Markaziy Osiyo doirasida strategik sheriklik tizimini yo‘lga qo‘yish borasidagi harakatlari, shuningdek, janob Prezident Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari mexanizmini yaratish tashabbusi alohida e’tirofga loyiq. Ushbu mexanizm Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi integratsiyani yanada chuqurlashtirish, tinchlik va xavfsizlik hududini barpo etish hamda mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko‘maklashishga qaratilgan.

Ishonchim komilki, Yangi O‘zbekiston islohotlari, shubhasiz, aholining yashash tarzini yaxshilash, farovonlikni yanada oshirishga hamda mamlakat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Fursatdan foydalanib, O‘zbekiston xalqiga tinchlik-xotirjamlik, umummilliy baxt, yuksak taraqqiy tilayman. Azaliy do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va birdamligimiz bardavom bo‘lsin!!

DO‘STLIK VA JO‘MARDLIK AYYOMI



Boshlanishi 1-sahifada.

Boku esa, o‘z navbatida, ushbu koordinatlar tizimida noyob geografik afzallikka ega bo‘lgan va Markaziy Osiyoning “g‘arbiy darvozasi” kabi strategik rol bajaradigan tabiiy hamkor sifatida maydonga chiqadi.

Ma’lumki, Fuzuliy shahrida O‘zbekistonning qardoshlarcha qo‘llab-quvvatlashi bilan Mirzo Ulug‘bek nomidagi zamonaviy o‘rta maktab qurildi. Bundan tashqari, Xonkendida O‘zbekistonning faol ishtirokida ikki mamlakat yetakchilari shaxsan tashrif buyurgan yirik tikuvchilik fabrikasi allaqachon faoliyat yuritmoqda. Bu loyihalarning biz uchun ahamiyati juda chuqur bo‘lib, iqtisodiy yoki gumanitar funksiya doirasiga sig‘maydi. O‘zbekiston aslida Markaziy Osiyoda Ozarbayjon suverenitetini qayta tiklashga nafaqat diplomatik yordam ko‘rsatgan, balki jabr ko‘rgan hududlarni amaliy qayta tiklashga qo‘shilgan birinchi davlat bo‘ldi. O‘z navbatida, Ozarbayjon ham O‘zbekiston hududida yirik loyihalarni amalga oshirishda – eng avvalo, sanoatda (shu jumladan, qurilish materiallari ishlab chiqarishga kiritilgan investitsiyalar), energetika sektorida (SOCAR liniyasi bo‘yicha), shuningdek, qurilish va transport infratuzilmasi sohasida faol ishtirok etmoqda. Shu sababli ushbu tashrif davomida investitsiyalar va sanoat kooperatsiyasi, transport-logistika o‘zaro bog‘liqligi va hamkorlikning mintaqaviy institutsionallashuvi mavzulari alohida o‘rin tutdi.

Ikki qardosh mamlakat barcha masalalarda hamisha bir-birini qo‘llab-quvvatlab kelayotgani fikrchan fuqarolarda faxr-iftixor uyg‘otadi. Bu pozitsiya nafaqat ikki tomonlama munosabatlar uchun muhimdir. Boku va Toshkent xalqaro maydonlarda faol hamkorlik qilmoqda va pozitsiyalari mos keladigan joylarda bir-birini qo‘llab-quvvatlamoqda. Bugungi kunda ikki mamlakat BMT, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash hamda Qo‘shilmaslik harakati doirasida hamkorlik qilmoqda.

Munosabatlarimizdagi siyosiy hamkorlikning yanada kengroq ko‘lami Markaziy Osiyo bilan bog‘liq. Ozarbayjon so‘nggi yillarda mintaqadagi sifat jihatidan barcha davlatlar bilan munosabatlarni izchil mustahkamlab kelmoqda. Uning Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarida to‘laqonli ishtirok etishi haqidagi qarori muhim voqea bo‘ldi. Bu qaror o‘tgan yilning noyabr oyida Toshkentda O‘zbekiston raisligida o‘tgan 7-Maslahat uchrashuvida qabul qilingan edi.

Boku uchun mazkur format Markaziy Osiyoning beshta davlati yetakchilari bilan birgalikda mintaqaviy masalalarni bevosita muhokama qilish imkoniyatini berdi.

Ozarbayjon ishtirokida Markaziy Osiyoning beshta davlatini birlashtirgan avvalgi “C5” formati yangi mazmun kasb etdi. Ilgari “C5” deb atalgan hamkorlik formati aslida “C6” formatiga aylandi, mintaqaviy muloqot va strategik sheriklik esa yangi mazmun va ko‘lamga ega bo‘ldi. Geografik jihatdan bu qaror mutlaqo qonuniyatdir: Ozarbayjon Janubiy Kavkazda, Markaziy Osiyo mamlakatlari esa Kaspiy dengizining berigi qirg‘og‘ida joylashgan. Ularning yagona siyosiy format doirasida birlashishi ikki qo‘shni mintaqa o‘rtasida bevosita hamkorlikning qo‘shimcha kanalini yaratadi.

MUSTAQILLIK – FIDOYILIK VA BUNYODKORLIK DEMAK

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi arafasida mamlakat hayotidagi eng muhim qadriyatlardan biri – inson mehnati va fidoyiligini e’tirof etish an’anasi yana bir bor namoyon bo‘ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo‘lgan bir guruh vatandoshlarni taqdirlash marosimi xalqimizning munosib farzandlariga ko‘rsatilayotgan yuksak hurmatning yorqin ifodasi bo‘ldi. Tantanali tadbirda davlatimiz rahbari yig‘ilganlarni ulug‘ ayyom – O‘zbekiston mustaqilligining 35 yilligi bilan samimiy muborakbod etdi.

So‘nggi o‘n yilda iqtisodiyot va ijtimoiy sohada salmoqli natijalar qo‘lga kiritildi. Mamlakatimizga 160 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiya kirib keldi. Iqtisodiyot hajmi 2,5 barobardan ziyod oshdi.

Joriy yilda yalpi ichki mahsulot hajmini 180 milliard dollardan oshirish maqsadi belgilangan. Sanoat, xizmatlar va qishloq xo‘jaligida 5 million 700 mingta doimiy ish o‘rni yaratildi. Ta’lim va tibbiyot sohalarida ham katta ishlar amalga oshirildi. Davlat va xususiy sektor ishtirokida 1 million 500 ming o‘rinli maktablar, 342 ming o‘rinli maktabgacha ta’lim tashkilotlari va 62 ming o‘rinli shifoxonalar barpo etildi.

Mustaqillikning 35 yilligi munosabati bilan 558 nafar fidoyi vatandosh yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Ularning har biri turli sohalarda samarali mehnat qilib, mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan. Xorazmda ko‘p yillar davomida bunyodkorlik ishlariga hissa qo‘shib, bugun nuroniylarga boshchilik qilayotgan Rustam Sultonovning xizmatlari – avlodlar davomiyligi va el-yurtga sadoqat namunasidir. Surxondaryoda cho‘llarni o‘zlashtirish va dehqonchilikni rivojlantirishga umrini bag‘ishlagan mehnat faxriysi Abdusattor Qurbonovning hayot yo‘li matonat va mehnat qahramonligini namoyon etadi.

Bekobod metallurgiya kombinatida uzoq yillardan beri po‘lat erituvchi bo‘lib ishlayotgan G‘ulomjon Turonovga “Xizmat ko‘rsatgan sanoat xodimi” faxriy unvonining berilishi esa butun metallurglar mehnatiga berilgan yuksak bahodir.

Paxtachilik va g‘allachilikda yuqori natijalarga erishgan namanganlik Ilhom Ziyovuddinov, pillachilikda yuqori hosil olayotgan buxorolik Jamila Xudoyberdiyeva, chorvachilikda ilg‘or texnologiyalarni joriy etayotgan qoraqalpog‘istonlik Esenbay Aytimuratov hamda suv tejamkor tizimlarni rivojlantirayotgan samarqandlik irrigator Aslanqul Karimqulov kabi yurtdoshlarimiz mehnati o‘z sohasidagi minglab insonlarning fidoyiligini ifodalaydi. Demak, mukofot bir shaxsga berilgan taqdir tuhfasi emas. U muayyan kasb, soha va mehnat jamoasining mamlakat rivojidagi o‘rnining e’tirofidir.

Marosimda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yangi O‘zbekistonning eng katta natijasi o‘zgargan inson, o‘z kuchiga ishongan fuqaro va ertangi kunga daxldorligini his qilayotgan jamiyat ekanini ta’kidladi. Ushbu fikr mustaqillikning mazmun-mohiyatini chuqur ifodalaydi. Chunki Istiqlol faqat davlat chegaralari yoki rasmiy ramzlar bilan cheklanmaydi.

U avvalo insonning o‘z taqdiri, oilasi va yurti kelajagiga ishonch bilan qarashida namoyon bo‘ladi. O‘z fikri, tashabbusi va mehnati bilan jamiyat hayotiga ta’sir ko‘rsata oladigan fuqaro – mustaqillikning eng katta mevasidir.

Mustaqillikning 35 yilligi bosib o‘tilgan yo‘lni faxr bilan eslash, erishilgan yutuqlarni munosib baholash va kelgusi vazifalarni belgilash uchun muhim tarixiy palladir.

Bugungi davlat mukofotlari adolat va qadr timsoli bo‘lib, xalqimizning eng yaxshi fazilatlari – halol mehnat, sadoqat, jasorat va bunyodkorlikni yanada rag‘batlantiradi.

Mukofot muborak, aziz nazarkarda yurtdoshlar!

Istiqlol atalmish Tangri inoyati va yorlig‘i qutlug‘ bo‘lsin, toleyi yorug‘ zamondosh!

Iqbol MIRZO

E’TIBOR VA E’TIROF

Boshlanishi 1-sahifada.

Mazkur hujjatga muvofiq, sohada iste’dodlarni yuzaga chiqarish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida yangi tizim joriy qilinishi ko‘zda tutilmoqda. Jumladan, teatr, kino, raqs, opera, folklor, estrada, akademik va milliy cholg‘u, tasviriy va amaliy san’at kabi 21 ta yo‘nalish bo‘yicha ijodiy birlashmalar tashkil etiladi. Bu birlashmalarga bir tomondan ustoz ijodkorlar, ikkinchi tomondan vazirlar va kompaniya rahbarlari hamrais bo‘ladi. 2027-yildan boshlab ijodiy birlashmalarning yillik ijodiy hisoboti shaklida Milliy ijodkorlar qurultoyi o‘tkaziladi, unda birlashmalarning yil davomida eng yaxshi natija ko‘rsatgan faollari davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan rag‘batlantiriladi.

Iste’dodlarni aniqlash va rivojlantirish, ularning prodyuserlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydigan biznes loyihalarini moliyalashtirish maqsadida Madaniyat vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomisiz “Ijodga investitsiya” davlat maqsadli jamg‘armasi tashkil etiladi. Mazkur jamg‘armaga har yili respublika byudjetidan 200 milliard so‘m mablag‘ ajratiladi.

Madaniyat vazirligi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda 2027-yildan boshlab har yili teatr, cholg‘u, xor va raqs yo‘nalishida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘rtasida tuman–viloyat–respublika darajasida tanlovlarni o‘tkazib borishni yo‘lga qo‘yadi. Bunda har bir yo‘nalish bo‘yicha respublika darajasidagi tanlovda g‘olib deb topilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasasiga jamg‘arma mablag‘lari hisobidan 500 million so‘mdan grant beriladi. Respublika tanlovi g‘oliblari madaniyat va san’at yo‘nalishlari bo‘yicha davlat ta’lim tashkilotlariga kirishda ijodiy imtihondan ozod etiladi va ularga maksimal ball beriladi.

Ko‘pincha san’at sohasidagi iste’dodli bolalar chekka qishloq yoki olis hududlarda qolib ketadi. Ular o‘z qobiliyatini namoyon etish uchun imkoniyat topa olmaydi. Tuman–viloyat–respublika bosqichlarini qamrab olgan yangi tizim esa mamlakatning har bir hududidagi navqiron iqtidorlarni aniqlash va ularni professional san’at ta’limiga yo‘naltirish imkonini yaratadi. Eng muhimi, bu tanlovlarda faqat alohida o‘quvchi emas, balki butun maktab jamoasi ishtirok etishida. Har bir yo‘nalish bo‘yicha respublika g‘oliblariga 500 million so‘mlik grant ajratilishi tashabbusning moddiy asoslari puxta o‘ylanganini ko‘rsatib turibdi.

Farmonda sohani qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kengaytirish bo‘yicha qator choralar belgilangan. Jumladan, 2026-yil 1-sentyabrdan 2036-yil 1-yanvarga qadar asosiy faoliyati konsert-tomosha, kinematografiya, bolalar uchun kontent yaratish bo‘lgan subyektlar, nodavlat teatr va teatr-studiyalar hamda madaniyat va san’at yo‘nalishidagi xususiy ta’lim tashkilotlari qo‘shilgan qiymat solig‘i, foyda solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq, yer solig‘i, mol-mulk solig‘idan, ularda ishlovchi xodimlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ozod qilinadi. Xorijiy kompaniyalarning O‘zbekiston hududida kino mahsulotini yaratish bilan bog‘liq faoliyati natijasida olgan daromadlari O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga to‘lov manbayida soliq solishda soliq bazasiga kiritilmaydi.

Hujjatda bolalar uchun kontent yaratish bilan shug‘ullanuvchi subyektlarni qo‘llab-quvvatlash ham alohida qayd etilgan. Bu juda dolzarb masala. Bugun bolalarning axborot muhiti ko‘p jihatdan chet el mahsulotlari ta’sirida shakllanmoqda. Milliy qadriyatlar, til va ma’naviyatni aks ettiruvchi sifatli multfilmlar, spektakllar, musiqiy dasturlar va kino mahsulotlariga ehtiyoj katta. Soliq imtiyozlari mahalliy prodyuserlar va ijodiy jamoalarni aynan shu yo‘nalishga sarmoya kiritishga rag‘batlantiradi. Bu esa kelajak avlodning ma’naviy tarbiyasi va milliy o‘zligini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

Xorijiy kompaniyalarning O‘zbekiston hududida kino mahsulotini yaratishdan olgan daromadlarini soliq bazasiga kiritmaslik to‘g‘risidagi me’yorlar mamlakatni xalqaro kinoindustriya uchun jozibador hududga aylantirishga qaratilgan strategik qadamdir. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kino ishlab chiqarish uchun qulay soliq siyosati mamlakatlarni xalqaro media markazga aylantirishi mumkin. Masalan, Gruziya, Vengriya va Birlashgan Arab Amirliklari shunday mexanizmlar orqali yirik kinoloyihalarni jalb etgan.

Bu tarixiy hujjatda davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan har yili moliyalashtiriladigan qator yo‘nalishlar ham ko‘rsatib o‘tildi. Jumladan, endilikda yiliga kamida 50 ta eng sara asarni yaratish uchun shoir va yozuvchilarga ijodiy buyurtma beriladi. Opera, simfoniya kabi mumtoz va zamonaviy janrlar bo‘yicha har yili kamida 20 ta yangi asar yaratish uchun ijodkorlarga davlat buyurtmasi taklif qilinadi.

Har yili milliy adabiyotimizning eng sara 10 ta asarini xorijiy tillarga tarjima qilish va mualliflar ishtirokida chet ellarda taqdimotlar o‘tkazish xarajatlari qoplab beriladi. Yozuvchilar uyushmasi tavsiyasi asosida chop etiladigan kitoblarni nashr etish uchun qog‘oz xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlar ham qoplanadi. She’riyat bilan san’atni uyg‘unlashtirgan holda tashkil etiladigan eng sara 100 ta she’riy konsertni o‘tkazish bo‘yicha davlat buyurtmasi shakllantiriladi.

Farmonda yosh iste’dodlar va ularning ustozlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tartib o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan. Jumladan, 2026-yil 1-sentyabrdan boshlab madaniyat, san’at va adabiyot sohalaridagi nufuzli xalqaro va respublika tanlovlari g‘olib va sovrindorlari davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan bir martalik pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi. Chunonchi, gran-pri va 1-o‘rin g‘olibi – xalqaro tanlov bo‘yicha 300 million so‘m, respublika tanlovi bo‘yicha 100 million so‘m bilan taqdirlanadi. Tanlovlarning g‘olib va sovrindorlarini tayyorlagan o‘qituvchi (konsertmeyster)ning oylik maoshiga esa bir yil davomida 100 foizgacha ustama to‘lanadi. Nufuzli xalqaro tanlovlarning g‘olib (sovrindor)lari va ularning o‘qituvchi (konsertmeyster)larining tanlovlarda ishtirok etishi xarajatlari to‘liq davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi. Ushbu bandda nazarda tutilgan qo‘llab-quvvatlash choralari xususiy sektorda faoliyat yurituvchi shaxslarga nisbatan ham tatbiq etiladi.



Ozodbek NAZARBEKOV,
O‘zbekiston Respublikasi
Madaniyat vaziri

Ko‘p yillar davomida madaniyat va san’at sohasi vakillari haqida gap ketganda ularning ijodiy yutuqlari, sahnadagi muvaffaqiyatlari yoki ma’naviy xizmatlari haqida ko‘p so‘zlanardi. Biroq har qanday ijodkor ham, avvalo, inson. Uning ham oilasi, farzandlari, turmush tashvishlari bor. Shu ma’noda, har yili 1000 nafar uy-joyga muhtoj madaniyat, san’at va ijodiy soha vakili uchun ipoteka kreditlari ajratilishi nazarda tutilgani soha vakillarining eng dolzarb ehtiyojlaridan biriga samarali yechim bo‘ldi. Mazkur dasturning ahamiyatini yanada oshiradigan jihat – davlatning boshlang‘ich to‘lov va kredit foizlarining muayyan qismini o‘z zimmasiga olishidir.

Yana bir muhim yangilik – boshqa hududdan kelib ishlayotgan madaniyat, san’at va adabiyot vakillarining ijara xarajatlarini qisman qoplab berish tizimining joriy etilishidir. Toshkent shahrida bazaviy hisoblash miqdorining olti baravari, hududlarda to‘rt baravari miqdorida ijara xarajatlarining qoplab berilishi kadrlar mobilligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur qaror orqali madaniyat markazlari faqat poytaxtda emas, balki barcha hududlarda shakllanishi uchun zamin yaratiladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxs deb topilgan yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2026-yil 1-sentyabrdan boshlab hududlarda inklyuziv ijodiy ustaxonalar tashkil qilinadi.

Sohada nodavlat sektor faolligini oshirish, kinoindustriyani yanada rivojlantirish, hududlarda madaniyat tadbirlarini tashkil etish va kitobxonlikni yuksaltirish, ta’lim tizimini takomillashtirish bilan bog‘liq yana ko‘plab chora-tadbirlar belgilanganki, bularning barchasi jonajon Vatanimizda madaniyat, san’at va adabiyotni yanada taraqqiy ettirishga xizmat qilishi shubhasiz. Bu xalqimizni azaliy orzulari ijobatiga yanada yaqinlashtiradi. Bir so‘z bilan aytganda, Prezidentimizning mazkur muhim farmoni O‘zbekistonda madaniyat, san’at va adabiyot sohalariga davlat taraqqiyotining strategik yo‘nalishi sifatida qarashga o‘tilganining yaqqol tasdig‘idir.

* * *

Mustaqillik bayrami ostonasida ming hayajon va cheksiz ehtirom bilan yurtimizning tinchligi va osoyishtaligiga ko‘z tegmasin deb, o‘z mehr-muhabbatimni izhor etmoqchiman. Osmoni musaffo, xalqi farovon, san’ati va madaniyati buyuk O‘zbekistonimizning mustaqilligi abadiy bo‘lsin! San’atkorlar shu jannatmonand yurt madhini kuylab tolmasinlar! Vatan sarhadlarini qo‘riqlayotgan Amir Temur nabiralari omon bo‘lsin! Zero, Vatanni sevmoq iymondandir.

E’TIROF

ILM INSON UCHUN





Uyg‘un G‘AFUROV,
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti rektori

Mamlakatimizda keyingi yillarda diniy ta’lim sohasida misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar yuz berdi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan uchta oliy, bitta o‘rta maxsus diniy ta’lim muassasasi, to‘rtta xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni sohada mazmun va sifat jihatdan yangi darajadagi islohotlarni boshlab berdi. 1971-yildan 2017-yilga qadar Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti ushbu yo‘nalishda yagona oliy ta’lim muassasasi hisoblangan bo‘lsa, qisqa davrda Buxoroda Mir Arab oliy madrasasi, Samarqandda Hadis ilmi maktabi, Surxondaryoda Imom Termiziy islom instituti va shu nomdagi madrasa ish boshladi. Ayni vaqtda besh yuz yillik tarixga ega Mir Arab oliy madrasasini al-Azhar darajasiga olib chiqish bo‘yicha ishlar boshlandi.

Yangilanishlarni Toshkent islom instituti misolida olib qaraydigan bo‘lsak, muassasamiz 2022-yildan kredit-modul tizimiga o‘tdi hamda HEMIS elektron ta’lim platformasiga ulanib, ta’lim jarayonlari to‘liq raqamlashtirildi. Institut ilmiy salohiyatini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar qilinib, so‘nggi yillarda mudarrislarning 26 nafari falsafa doktori (PhD), 2 nafari fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega bo‘ldi, ilmiy salohiyat 23 foizga o‘sdi. Yaqin oylarda yana 10 nafar tadqiqotchi dissertatsiya himoya qiladi. Asrlar davomida milliy madrasalarda shakllangan ta’lim tizimi hamda yetakchi xorijiy islom universitetlari tajribasini e’tiborga olgan holda, o‘quv reja va fan dasturlari yanada takomillashtirildi, mutaxassislik fanlari bo‘yicha yangi avlod darsliklari tayyorlandi hamda ta’limning uzluksizligi ta’minlandi.

Mutaxassislik fanlarini buyuk allomalarimizning mo‘tabar asarlari, ularga yozilgan sharhlar va hoshiyalar asosida o‘qitish bo‘yicha “Xatmul kutub” an’anasi hamda ustoz-shogird o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlovchi “Ijoza” berish tizimi tiklandi. Iordaniyadagi Xalqaro islom fanlari universiteti, Birlashgan Arab Amirliklaridagi Muhammad ibn Zoyid va Vasl universitetlari bilan memorandumlar imzolanib, diplomlarni o‘zaro tan olish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Misrdagi al-Azhar, Makkadagi Ummul Quro universitetlarida islom ilmlarini o‘qitishning zamonaviy metodikalari yaqindan o‘rganildi. Al-Azhar universitetidan malakali ustozlarning talabalarimizga saboq berishi, o‘qituvchilarimizning Saudiya Arabistoni, Misr va Turkiyadagi universitet va ilmiy markazlarda malaka oshirishi yo‘lga qo‘yildi. Ayni paytda institutimizda magistratura ta’limi 6 ta mutaxassislik bo‘yicha ochilgan. Ilk bitiruvchilar himoya jarayonida 52 ta ilmiy maqola va tezis nashr etgani – dastlabki amaliy natijalardan biridir. Ularning barchasi O‘zbekiston musulmonlar idorasi tizimida ish bilan ta’minlandi.

Albatta, faqat imkoniyatning o‘zi hali natija degani emas. Uni natijaga aylantiradigan asosiy kuch ustozdir. Ustozning vikipediya kabi dasturlardan farqi u faqat ma’lumot bermaydi, balki shaxsni tarbiyalaydi. Buning uchun zamonaviy pedagogdan, avvalo, talabani mustaqil fikrlashga o‘rgatish ko‘nikmasi talab etiladi. Bugun diniy bilim berayotgan pedagogning qo‘lida oddiy talaba emas, bo‘lajak olim, ulamo tahsil olyapti. Shu ma’noda, har bir mudarris “Men qanday dars beryapman?” va “Men qanday insonni tarbiyalayapman?” degan savollarni o‘ziga berishi lozim. Buyuk muhaddis va olim Abdulloh ibn Muborakdan: “Bizga ko‘p ilmdan ko‘ra, oz bo‘lsa-da, odob ko‘proq zarur”, degan mashhur so‘z naql qilinadi. Bilimli, ammo muomala madaniyati past mutaxassis jamiyatga kutilgan darajada foyda keltira olmaydi. Shuning uchun biz “ilm – odob – mas’uliyat” uchligini diniy ta’limning asosiy tarbiyaviy formulasi, deb bilamiz.

Joriy yil 1-noyabrda Toshkent islom instituti tashkil etilganiga 55 yil to‘ladi. Fidoyi ulamolarimiz ilk saboqlardanoq diniy va zamonaviy ilmlarni puxta egallagan mutaxassis tayyorlashni asosiy vazifa sifatida belgilagan. Bugun “zamonaviy ilm” tushunchasi ancha kengaygan. Endi uning doirasiga pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, axborot texnologiyalari, raqamli savodxonlik, sun’iy intellekt, xorijiy tillar, zamonaviy ilmiy tadqiqot usullari ham kiradi. Bugun biz bu vazifalarni yanada yuqori bosqichga olib chiqishimiz zarur. Biz ajdodlardan uzilmaymiz, ammo faqat o‘tmish bilan ham yashamaymiz. Biz bugun ajdodlar merosiga tayanamiz va kelajak uchun mutaxassis tayyorlaymiz.

Bugun talaba faqat darslikka bog‘lanmagan. Uning qo‘lida smartfon bor. Demak, bir vaqtning o‘zida o‘nlab, balki yuzlab manbalardan axborot olishi mumkin. Ammo o‘sha manbalarga joylanayotgan bilim kim tomonidan qay maqsadda tarqatilyapti? Mana, muammo qayerda. Shu bois, diniy-ma’rifiy soha vakili o‘ta zakiy, hushyor va dunyoqarashi keng bo‘lishi shart. Shundan kelib chiqib, 2030-yilgacha nimalarni o‘zgartirish lozimligi haqida kengashib, eng muhim masalalarni aniqlab olganmiz. Bitiruvchining diplom olishi emas, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi bizning asosiy maqsadimizdir.

Bugun ilm-fan sohasini sun’iy idrok ishtirokisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Sun’iy intellekt diniy ta’limga ham kirib kelmoqda. Biz bundan qo‘rqishimiz emas, undan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirishimiz kerak. Zero, bu tafakkur mahsuli talabalarga til o‘rganish, tarjima, bibliografik qidiruv, ta’lim materiallari tayyorlash, mustaqil ta’lim uchun katta yengilliklar beradi. Lekin bir qoida o‘zgarmasdir: sun’iy intellekt bu – diniy manba emas. Shuning uchun kelajak mutaxassisi texnologiyani biladigan, ammo texnologiyaga ko‘r-ko‘rona ergashmaydigan mutaxassis bo‘lishi darkor.

Bag‘rikenglik, mo‘tadillik va ma’rifat an’anasi O‘zbekiston diniy-ma’rifiy maktabining muhim xususiyatlaridan biri ekanini yaxshi bilamiz. Imom Buxoriyning hadis ilmidagi aniqlik va mas’uliyat maktabi, Imom Moturidiyning aql va naql uyg‘unligi, Burhoniddin Marg‘inoniyning fiqhiy tizimlashtirish mahorati, Abu Muin Nasafiyning aqidaviy tafakkuri bizga shunday saboq beradi: diniy ilm – chuqur dalilga tayanadigan, tafakkurni rad etmaydigan va insonni ma’rifatga yetaklaydigan ilmdir. Shu bois, diniy ta’lim muassasasi bitiruvchisi o‘z dinini chuqur bilish bilan birga, boshqa mazhab va din vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘la olishi kerak. Bu – zamonaviylik emas, avvalo, bizning milliy diniy-ilmiy an’anamizdir.

Bugungi kunda jahonda minglab diniy ta’lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Biroq ularning bir nigohi doim Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston ilmgohlariga qaratilgan. Chunki, o‘lkamizdan buxoriylar, termiziylar, zamaxshariylar, moturidiylar, marg‘inoniylar, beruniylar, ulug‘beklar, xorazmiylar yetishib chiqqan. Bu shonli diyorda kamol topgan ulamo-yu fuzalolarga bashariyat hamisha muhtoj bo‘lgan. Bugun dunyo ahli Imom Buxoriy majmuasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, ilmiy-tadqiqot markazlarimiz va oliy ta’lim dargohlarimiz ziyosidan bahra topmoqda. Ularning nigohida yangi avlod yutuqlaridan hayratni o‘qiymiz. Mana shu shukuh bardavom bo‘lishida biz, diniy-ma’rifiy ta’lim muassasalari vakillari munosib hissamizni qo‘shishimiz lozim. Zero, ilm ilm uchun emas, avvalo, inson uchun, el-yurt farovonligi uchun xizmat qilmog‘i kerak.

Fursatdan foydalanib, eng ulug‘, eng aziz bayram bilan barcha vatandoshlarni muborakbod etaman!

MA’RIFAT OBIDASI

Boshlanishi 1-sahifada.

Mustaqillik yillarida majmua obod qilinib, Imom Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha 1225 yilligi munosabati bilan yangi maqbara va masjid bunyod etilgan. Biroq ziyoratchilar soni kundan kun oshib, mavjud hudud va infratuzilma keng xalqaro oqimni qabul qilish uchun torlik qila boshladi. Shuningdek, Imom Buxoriyning ulkan ilmiy merosini zamonaviy muzey, ta’lim va tadqiqot vositasida to‘laqonli namoyon etadigan yaxlit majmuaga zarurat tug‘ildi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2019-yili Samarqand viloyatiga tashrifi chog‘ida Imom Buxoriy yodgorlik majmuasini kengaytirish niyatini izhor qildi va buyuk muhaddis sharafiga bunyod etilajak majmua u zotning islom olamidagi maqomiga munosib bo‘lishi, O‘zbekistondagi ziyorat turizmining asosiy maskanlaridan biri sifatida ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratishi shartligini alohida ta’kidladi.

2019-yili Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Hadis ilmi maktabi faoliyati ham yangi bosqichga ko‘tarilib, majmuaning to‘rt tayanchi – ziyorat, ibodat, ilm va ta’lim yagona hududda o‘zaro uyg‘unlashishi uchun mustahkam zamin yaratildi.


2021-yil 15-aprel kuni – muborak Ramazon oyining dastlabki kunlarida Imom Buxoriy ziyoratgohidagi yangi majmua qurilishi boshlandi. Prezidentimiz 2022-yil 7-fevralda qurilish loyihalari taqdimotida majmuaning ichki va tashqi bezaklariga oid chizmalarni ko‘rib chiqdi. Bu paytga kelib asosiy binolar qad rostlagan, pardozlash ishlariga tayyorgarlik boshlangan edi. Davlatimiz rahbari devorlarni milliy naqshlar va pardozbop toshlar bilan bezash, maqbarada naqqoshlik va xattotlik san’atini uyg‘unlashtirish, qadimiy uslubda Qur’on oyatlari va hadislar bitilishi bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Me’morchilik bu yerda faqat shakl emas, ma’noga aylandi. Moviy gumbazlar Samarqand osmoni va temuriylar me’morchiligining davomiyligini, to‘rt minora islom ma’rifati nurining to‘rt tomonga tarqalishini, keng ayvonlar esa bag‘rikenglik va mehmondo‘stlikni ifoda etadi.

Bu yillarda majmuaning faqat miqyosi emas, ma’naviy mazmuni ham boyidi. Innovatsion muzey uchun Imom Buxoriy hayoti, safarlari, ustoz va shogirdlari, asarlari, hadis to‘plash uslubi hamda “Sahihul Buxoriy”ning jahon bo‘ylab tarqalishini ko‘rsatadigan ilmiy ssenariylar tayyorlandi. Qadimiy qo‘lyozmalar, faksimil nusxalar, xaritalar, maketlar, zamonaviy audiovizual vositalar va interaktiv yechimlar bir tizimga keltirildi.

Muzey mazmuni Imom Buxoriy shaxsi bilan cheklanib qolmadi. Qur’oni Karimda nomi zikr qilingan yigirma besh payg‘ambar tarixi, Muhammad alayhissalomning shajarasi, Makka va Madinadagi hayoti, vahiy, hadislarning jamlanishi va yozilishi haqidagi ma’lumotlar ham ekspozitsiyaga kiritildi. Bu yondashuv ziyoratchilarga hadis ilmining paydo bo‘lishi, rivojlanishi va Imom Buxoriyning ushbu buyuk silsiladagi o‘rnini yaxlit anglash imkonini beradi.

MUSTAQILLIKNING MA’RIFIY TIMSOLI

2026-yil mart oyida Imom Buxoriy yodgorlik majmuasidagi asosiy bunyodkorlik ishlari yakunlandi. Ramazonning fayzli kunlarida eshiklarini ochgan bu qutlug‘ dargohda ilk bor Hayit namozi ado etildi. Bunyodkorlik ishlari yakuniga yetgach, majmua maydoni qirq besh gektarni tashkil etdi. O‘n ming kishiga mo‘ljallangan ulkan masjid, ma’muriyat binosi va milliy uslubdagi bir yuz ellik to‘rt ustunli muhtasham ayvon qurildi. O‘n to‘rt moviy gumbaz va yetmish besh metrlik to‘rt minora ziyoratgohning gultojiga aylandi. Maqbaraning sokin va salobatli muhiti esa har qanday ziyoratchi qalbida Imom Buxoriy xotirasiga chuqur ehtirom tuyg‘usini uyg‘otishi shubhasiz.



Abdulhamid MUXTOROV,
“Shuhrat” medali sohibi



To‘qqiz pavilondan iborat innovatsion muzey eng ilg‘or axborot texnologiyalari asosida jihozlandi. Ekspozitsiya tomoshabinni quruq raqam va sanalar bilan emas, tarixiy muhit, ilmiy izlanish va ma’naviy tajriba orqali Imom Buxoriy olamiga olib kiradi. Majmua qoshidagi turizm markazi ham yaxlit loyihaning muhim qismi hisoblanadi. Unga yondosh o‘n besh gektar maydonda bitta to‘rt yulduzli va ikkita uch yulduzli mehmonxona, yigirma ikkita oilaviy mehmon uyi, avtoturargoh, savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalari tashkil etilgan. Oilaviy mehmon uylarining o‘zi bir yuz yetmish olti o‘ringa ega. Natijada ilgari bir kunda 12 ming ziyoratchiga xizmat ko‘rsatgan majmua endi kuniga 65 ming mehmonni qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Joriy yil 9-iyulda Samarqand shahrida I Xalqaro islom sivilizatsiyasi forumi doirasida “Imom Buxoriyning “Al-Jome’ as-Sahih” asari – ummat kitobi” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Unda Shayx Solih bin Abdulloh bin Humayd O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’rifiy islohotlarga yuksak baho berib: “Bu ishlar O‘zbekiston o‘z milliy va diniy qadriyatlariga sodiq mamlakat ekanini, uning rahbariyati yuksak maqsadlar, puxta rejalar va uzoqni ko‘zlagan taraqqiyot strategiyasi asosida harakat qilayotganini yaqqol namoyon etmoqda”, deya ta’kidladi. Xorijlik nufuzli ulamoning bahosi Yangi O‘zbekistondagi bunyodkorlikning jahon miqyosidagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Imom Buxoriy majmuasi bir mamlakatning ichki madaniy loyihasi bo‘lib qolmadi – u butun islom ummatiga tegishli merosni asrash va zamonaviy ilm bilan rivojlantirishga qaratilgan xalqaro ma’rifat markaziga aylandi. Eng muhimi, bugun o‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan O‘zbekiston jahonga faqat buyuk allomalarni yetishtirgan zamin sifatida emas, ularning merosini zamonaviy ilm asosida davom ettirayotgan ma’rifatparvar davlat sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

EZGU G‘OYANING MA’NAVIY MANTIG‘I

Milliy o‘zlikni anglash faqat buyuk ajdodlar ismini zikr qilish bilan shakllanmaydi. Ularning nima uchun buyuk ekanini bilish, asarlarini o‘qish, ilmiy uslubini anglash va o‘sha fazilatlarni zamonaviy hayotda davom ettirish zarur. Mustaqillikning o‘ttiz besh yillik tajribasi bizga milliy faxr faqat o‘tmishdan g‘ururlanish emas, balki bu g‘ururni kelajak oldidagi mas’uliyatga aylantirish ekanini anglatdi. Agar bobolarimiz ilmda shunday yuksak cho‘qqilarni zabt etgan bo‘lsa, bugungi avlod ham yangi kashfiyot, yangi maktab va yangi ma’rifat markazlarini yaratishi shart.

Prezidentimiz nafaqat muazzam majmuaning bunyodkori bo‘ldi, balki uning falsafasini ham aniq belgilab berdi. Bu falsafaga ko‘ra, ajdodlarga hurmat ilm bilan namoyon bo‘lishi, ziyorat tarbiya bilan uyg‘unlashishi, me’moriy ulug‘vorlik aniq ma’noga ega bo‘lishi, tarix esa kelajakka ishonch bag‘ishlashi kerak.

Bugun yurtimizda allomalar xotirasini abadiylashtirish orqali xalqimizning ma’naviy ildizlari mustahkamlanmoqda. Chunki o‘z tarixini bilgan millat ma’naviy tahdidlar oldida mustahkam turadi. O‘z allomasini tanigan yoshlar soxta “qahramon”larga ergashmaydi. Ilmni qadrlagan jamiyat taraqqiyot yo‘lidan adashmaydi.

ABADIYATGA DAXLDOR NUR

Imom Buxoriy butun umrini ishonchli so‘zni soxta rivoyatdan ajratishga, Rasulullo sollallohu alayhi vasallamning sunnatini asrashga va ilmni omonat sifatida kelajakka yetkazishga bag‘ishladi. Oradan o‘n ikki asr o‘tdi. Uning nomi minbarlarda, madrasalarda, universitetlarda, xonadonlarda, olimlar davrasida hamon ehtirom bilan tilga olinadi. Chunki haqiqatga xizmat qilgan umr vaqt chegarasiga sig‘maydi.

Bu obidaga qarab, kishi Mustaqillikning naqadar buyuk ne’mat ekanini yana bir bor his qiladi. Zero, Istiqlol faqat siyosiy erkinlik emas, u millatning o‘z xotirasiga, o‘z tarixi va ma’naviy merosiga egalik huquqidir. Milliy xotirani tiklash, ajdodlar merosini xalqqa qaytarish, ulug‘ allomalar nomini jamiyatning bugungi ma’naviy hayotida aks ettirish ozod va erkin Vatanning ezgu maqsadidir. Xalqimiz o‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo‘lida o‘zligini anglash, tarixiy xotirasini tiklash, muqaddas qadriyatlarini asrash borasida ulkan yo‘lni bosib o‘tdi. Ayniqsa, keyingi o‘n yilda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar bu jarayonga yangi ruh, yangi ko‘lam va yangi mazmun bag‘ishladi. Xartangda qad rostlagan bu majmua ana shu tarixiy davrning ko‘z bilan ko‘rib, qalb bilan his etiladigan ma’rifiy timsolidir.

Millatni yorug‘ kelajakka yetaklash uni o‘z ildizlari, tarixiy xotirasi va ma’naviy qudratiga qayta bog‘lashdan boshlanadi. “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan ulug‘vor da’vatning ma’naviy mohiyati ham ana shunda.

SHUKUH

ISHONCH PAYDO BO‘LDI



Karim SULTONOV,
O‘zFA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti direktori,
“Mehnat shuhrati” ordeni sovrindori

O‘zbekiston mustaqilligining 35 yilligini nishonlash arafasida turibmiz. O‘tgan davrda xalqimiz ko‘p kunlarni ko‘rdi. Ayniqsa, sobiq ittifoq zamonida tug‘ilib-o‘sganlar ko‘p narsalarni solishtiradi. O‘sha paytdagi hayot bilan hozirgi hayotning farqi yer bilan osmoncha.

Hammamiz ko‘rib, bilib turgan haqiqat: oxirgi o‘n yil ichida O‘zbekiston misli ko‘rilmagan darajada rivojlanib ketdi. Odamlarda davlatga, Prezidentimizga juda katta ishonch paydo bo‘ldi. Har kim o‘z yo‘nalishidagi ishlarni gapirgani ma’qul, albatta. Mana, qurilish sohasi kuchayganidan keyin seysmik mustahkamlik masalalariga juda katta e’tibor berilyapti. Bino va inshootlarning loyihalariga berilgan ilmiy xulosalarni ko‘rib chiqish, ekspertiza qilish bizning institutga yuklandi. Mana shu tizim 2022-yildan boshlab yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, shu kungacha 800 ga yaqin qurilish loyihalari ko‘rib chiqildi. Albatta, bu ishlar institutimizning oyoqqa turib olishiga katta yordam berdi.

Umuman, bu borada Fanlar akademiyasi tarkibidagi har bir muassasa vakili to‘lqinlanib gapirishi mumkin. Chunki Yangi O‘zbekistonda ilm ahlining obro‘-e’tibori ko‘tarildi, ilmiy dargohlarning moddiy-texnik bazasi kuchaytirildi. Ko‘plab muammolar oqilona yechimini topdi. Endi ishlash, natija ko‘rsatish qoldi, xolos.

Mana shunday shukronalik kayfiyatida hammani ulug‘ bayram bilan chin qalbimdan tabriklayman!

TALQIN

YANGI O‘ZBEKISTONNI TANIMOQ BAXTI



Nurboy JABBOROV,
filologiya fanlari doktori,
professor

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz besh yilligi munosabati bilan fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, madaniyat va san’at sohalari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi Farmoni bilan turkiyalik huquqshunos-sotsiolog olim, taniqli adib Kemal Yavuz Ataman “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlandi. Qadrli qardoshimizning yaqinda chop etilgan “Men tanigan O‘zbekiston” asari jamiyatshunos tadqiqotchi ko‘zqarashini ifodalagani bilan yurtdoshlarimizni qiziqtirishi tayin.

Baxtli tasodifmi yoki qonuniyatmi, Yaratganning inoyati bilan Kemal Yavuz Ataman o‘zi sog‘inib intilgan, necha yillar yetishmoqni orziqib kutgan ota makonining boshkenti Toshkentga ilk bor 1991-yil 31-avgust – O‘zbekiston mustaqil davlat deb e’lon qilingan kuni kelgan. Uzoq vaqtlar davomida: “Bu tabarruk zaminlar qachon o‘z mustaqilligi va hurligiga erishar ekan?”, “Biz ulug‘ bobolarimizning muqaddas qadamjolarini qachon va qanday ziyorat qila olamiz?” degan o‘ylar bilan yashagan odamning aynan milliy istiqlol e’lon qilingan kunda ota yurtga qadam bosishi, haqiqatan, hayratlanarli... Biz qadimiy ildizlarga ega, ulug‘ sivilizatsiyalarga beshik bo‘lgan, muazzam davlatlar barpo etilgan o‘sha mashhur ota makonda, barakali va serfayz tuproqlarda edik”.


* * *

Bir umr intilib, orzusi ro‘yobga chiqqan muallif ota makonga kelgach, birinchi galda qardosh xalqning ruhiyatiga diqqat qaratadi. 1991-yilgi dastlabki, 2013-yil ikkinchi va 2018-yildagi uchinchi hamda undan keyingi safarlaridagi holatlarni qiyoslar ekan, o‘zgarishlar ko‘lami tobora kengayib borganini e’tirof etadi.

Ilk safar taassurotlariga ko‘ra: *“...iqtisodiy jihatdan biroz g‘arib, ruhiyati sokin, charchagan, andishali va kelajakdan biroz xavotirda bo‘lgan bir xalqning kayfiyati yaqqol ko‘zga tashlanib turardi. Kelajak haqida hali aniq bir to‘xtamga kelmagan, mavhum o‘ylar og‘ushida yashayotgan, o‘tmishda mustamlaka tuzumining ulkan azoblarini boshidan kechirib, yillar davomida chorasizliklar ichida qoldirilgan bir jamiyatning borligini shahar va qishloqlarning har birida ko‘rish mumkin edi”.*

Qardosh olim 2018-yilgi safarida tamomila o‘zgacha holatga guvoh bo‘lgani haqida yozadi. Eng muhimi, u voqelikni shunchaki tashqaridan kuzatmaydi. O‘zbekiston jamiyatini ichkaridan, chuqurroq o‘rganishni maqsad qiladi. Xulosa esa mana bunday: *“Men ko‘rgan va iqror bo‘lgan yagona haqiqat shu edi: insonlarning ko‘zida yangi bir nur, kuchli bir umid va qayta tirilishni bashorat qiluvchi jonlilik, g‘ayrat va ishonch bor edi. Bu manzara katta bir baxtning eshigini ochardi”.*

Yangi O‘zbekiston davrida yurtdoshlarimiz ong-u shuurida avval kuzatilmagan nur, kayfiyatida ilgari uchramagan ko‘tarinkilik, o‘zaro va kelajakka ishonch ruhi kuchaygani ayon bo‘ladi. Kemal ustoz – ko‘ngil odami, iymoni butun shaxs. U voqelikni zohiriga qarab emas, botiniga, asl mohiyatiga ko‘ra baholaydigan, o‘zi bilib, his etgan haqiqatlarnigina yozadigan olim. E’tiborli jihati, u kitobni majburiyat yuzasidan emas, qalb amri bilan xolis yozgan. “Agar 2022-yilda mendan: “Xo‘sh, Yangi O‘zbekistonda eng birinchi navbatda nimani ko‘rdingiz?” deya so‘rashganlarida edi, hech



bir ikkilanish va taraddudsiz bitta jumla bilan: “Xalqning o‘ziga bo‘lgan ishonchini ko‘rdim”, deb javob bergan bo‘lardim”.

* * *

Kemal Yavuz Ataman O‘zbekistonni, birinchi navbatda, tafakkur orqali tanigan, ilmga tayanib anglagan. Bu hol olimning Vatanimiz tarixiga doir kuzatishlarida yaqqol seziladi. So‘nggi o‘ttiz besh yilda tarixga munosabat borasida qanday evrilishlar bo‘lganiga doir qarashlari puxta asosga ega.

Buyuk Sohibqiron Amir Temur ziyoratidan qanchalik ta’sirlanganini muallif mana bunday xotirlaydi: *“Yo‘lboshlovchi Amir Temurning bosh tomonida yotgan zot uning ustozi Sayyid Baraka ekanini ta’kidlab, Temurning: “Meni ustozimning oyoq tomoniga dafn etinglar”, deb vasiyat qilganini aytdi. Bu ulug‘vor istak va orzu qarshisida butun guruh a’zolari hayratda qoldi. Ustozimiz: “Amir Temurni endi yaxshiroq anglayapmiz“, deya histuyg‘ularimizga tarjimon bo‘lgan edi o‘shanda…”.* Kemal ustoz ana shu fikrlari ta’sirida buyuk Sohibqiron tarixiga doir izlanishlar olib borib, Amir Temurning strateg sifatidagi yuksak salohiyatiga doir tadqiqotlar ham e’lon qildi.

Kemal afandi Islom sivilizatsiyasi markazining bunyod etilishini cheksiz quvonch bilan qarshi oldi. Turkiyaning “Yangi Ko‘nya” gazetasida maqola ham e’lon qildi. Markaz Yangi O‘zbekistonda erishilgan ilmiy-ma’rifiy va tarixiy-madaniy muvaffaqiyatlarni mukammal darajada aks ettirishini samimiy e’tirof etadi.

* * *

Kemal ustoz xalqimizning tabiatini juda yaxshi o‘rgangan,



uning kuzatuviga ko‘ra: *“O‘zbek xalqi o‘z tabiati va fitratiga mos ravishda ancha sodda, dabdaba va soxta hashamatdan yiroq, hayotni boricha qabul qilib, samimiy yashashni xush ko‘radigan go‘zal fe’l-atvorga ega. Ular hayot sinovlari va qiyinchiliklari qarshisida yuksak matonat ko‘rsatadigan, muammolarni hayotning tabiiy oqimi ichida, bosiqlik va osudalik bilan hal qila oladigan vazmin xarakter sohiblaridir”.*

Bugungi globallashuv shiddati va taraqqiyot sur’ati juda ko‘p xalqlarning milliy o‘zligiga tahdid solayotgani ayni haqiqat. Shunday murakkab sharoitda millatning o‘zligi va axloqini, asl tabiati va qadriyatlarini asray olishi har qachongidan ham muhimroqdir. Bu haqdagi fikrini u mana bu tarzda obrazli ifodalaydi: *“Mening tasavvurimdagi va shaxsan men tanigan O‘zbekiston xuddi pargar, ya’ni, sirkul singari o‘zining bir joyda turuvchi oyog‘ini doimo markazda, ya’ni, ma’naviyat negizlarida mustahkam tutgan holda, uning harakatlanuvchi ikkinchi oyog‘i bilan butun dunyoga, ilm-fanga, yuksak texnologiyalarga va global integratsiyaga dadil ochilmoqda. Bu mamlakat Osiyoning yuragidan qayta yuksalishga, mintaqada markaziy davlatga aylanishga hamda o‘zining Uchinchi Renessans mayog‘i bilan insoniyat ufqini qaytadan yoritishga chin dildan ahd qilgani ko‘rinib turibdi”.*

* * *

“Men tanigan O‘zbekiston” kitobining salmoqli qismi Prezident Shavkat Mirziyoyevning liderlik salohiyati, insoniy fazilatlari va davlat boshqaruvi o‘rtasidagi nozik muvozanat tahliliga bag‘ishlangan. Kemal ustoz bunda Prezidentning ommaviy axborot vositalaridagi bayonotlari, xalq bilan uchrashuv dasturlari, boshlagan keng qamrovli islohotlari mohiyati va omma oldidagi nutqlariga urg‘u beradi.


“Rahbar namoyon etayotgan samimiy va kamtarin, o‘zaro ishonch uyg‘otadigan muomala madaniyati, – deb yozadi muallif, – *davlatning avvalgi qovog‘i soliq, eskirgan qiyofasini yo‘q qilib, uning mehr-muhabbatli va barchaga e’tiborli bo‘lgan siymosini ko‘rsatmoqda”.*

* * *

Qardosh turk xalqining atoqli olimi va shoiri Kemal ustoz o‘zi tug‘ilib o‘sgan va buyuk ajdodimiz hazrat Jaloliddin Rumiy mangu qo‘nim topgan Ko‘nya shahrida Alisher Navoiy o‘rmonini tashkil etgan. Ulug‘ bobokalonimiz ruhini shod etish maqsadida o‘zbekistonlik o‘zi hurmat qilgan olimlar va shoir-u adiblar nomidan ushbu o‘rmonga daraxtlar ektirib, bunyodkorlik borasida hazrat Alisher Navoiy an’analarini davom ettirib kelayotir.

TAASSUROT

So‘z va ixlos SAFARNOMASI





Sitorabonu HOSHIM qizi,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori

Alisher Navoiyni quyoshga o‘xshataman, quyoshni issiq deyish mumkin, yorug‘ deyish mumkin, ulkan deyish mumkin, istagancha ta’riflash mumkin. Ammo bu ta’rifdan quyoshda zarracha martaba yoki ustunlik paydo bo‘lib qolmaydi, chunki quyosh bizning e’tirofimizsiz ham issiq, ulkan va yorug‘dir. Hazrat Navoiy shams ul millat – millatning quyoshidir. Uni har qancha ta’rif etmak faqatgina biz – muxlislarga foyda bo‘lishi mumkin, ammo bu ta’rif-u tavsifdan hazratning martabasi yuksalib yoki quyilashib qolmaydi.

Shoir, jurnalist Shahriyor Shavkatning “Hirotga, bobomning huzuriga!” nomli kitobi haqida ham ayni ta’rifni berish mumkin: biz o‘qimaganimiz bilan uning qimmati pasayib qolmaydi, ammo o‘qimaganimiz, ertaroq bu asar bilan tanishmaganimiz uchun afsuslanishimiz turgan gap.

Kitob boburona lahja bilan boshlanadi: *“Tangri taoloning inoyati va Sarvari koinotning shafoati va ham pok ko‘ngilli chahoryorlarning himmati birlan tarix ming to‘rt yuz qirq yettida, sha’bon oyining o‘n birida, muborak jum’a kuni ko‘hna Shoshdan ulug‘ hazratlarimiz yotgan tuproqni ziyorat etmoq ilinjida yo‘lga tushdim”.* Deyarli barcha mumtoz asarlar muqaddimasida kitob yozilish sababi va vaqti ko‘rsatiladi. Shu an’anaga muvofiq, muallif safarnomaning maqsadi va muddatini o‘quvchiga ma’lum etmoqda. Men ham, Navoiy boboga qo‘ygan ixlosim bois, biroz hayajonda mutolaani boshladim. E voh, ilk sahifalaridanoq ko‘zlarim yoshlandi. “Kema yo‘l bongin chalur”, “Umidim andog‘ki”, “Hirot ta’rifinda” kabi mumtoz ohanglarga uyg‘un sarlavhalar xayolimni olis moziy tomon olib ketdi.

Shahriyor ushbu kitobga shunchaki safar taassurotlari emas, Hazratga bo‘lgan bir umrlik e’tiqod va e’timodini joylashtiribdi. Asar tili uslubdan uslubga ko‘chib borgani sari shira tortib boraveradi: goh boburiy shevaning turlanishlari sizni rom etsa, goh Hazrat Navoiyning qalam bila rost so‘zi durdonalaridan zavqlanasiz. Bir kitobda to‘rt uslubni bir-biriga xalal bermagan, aksincha, bir-birini to‘ldirgan holda topasiz: so‘zlashuv uslubining erkinligi, badiiy uslub ranginligi, publitsistik uslubning o‘ychilligi, ilmiy uslubning vazminligi ajib umumiylik kasb etgan.

Muallif har bir ma’lumotni manbalarga tayangan holda taqdim etishga harakat qiladi. Ayniqsa, “Amudaryodan kimlar o‘tmagan deysiz?” nomli bobda Amudaryoning yurtimiz tarixida tutgan geosiyosiy va madaniy o‘rni alohida ta’kidlanadi. “Ravzayi sharif mehmoni” bobiga ilova qilingan suhbat esa bir roman bo‘lgulik mazmunni o‘zida jamlagan, desak, mubolag‘a emas. “Yurt notinch bo‘lsa, uni tashlab ketish mumkinmi?” degan og‘riqli savol qo‘ygan muallif bir mo‘ysafid bilan suhbatdan o‘z so‘roviga javob topadi. Ayni shu jarayondagi ruhiy evrilishlarni rostligicha o‘quvchiga taqdim etish esa Boburga xos tantilikdan, haqqoniylikdan dalolatdir.

Kitobning bir o‘rnida: “Welcome to Herat” sarlavhasini “Welcome to heart” deb o‘qibman. Va bu fikr bog‘liqligidan mutaassir bo‘ldim: Hirot biz, navoiyshunoslar, ijodkorlarning yuragimiz emasmi? Axir, unda Hazrat Navoiy yotibdi. Bu hissiyotlarimga Shahriyorning satrlari jo‘r bo‘ladi: *“Tag‘in jinniligim tutadi: “Hibatullo, ukajon, sen bir moshin tutib, narsalarimizni otelga oboraver. Mana bu oyoq kiyimimniyam ol. Baribir, menga kerak emas. Men Hazrat Alisher Navoiy maqbarasigacha yalangoyoq boraman. Yig‘lab-yig‘lab boraman, muborak g‘azallaridan aytib-aytib boraman!”*

Muallif Hazrat qabrini yetti kun ziyorat etgani, buning sababi “Sab’ai sayyor”dagi yetti musofir va yetti rangga ishoraligini ta’kidlaydi. Shu o‘rinda keshlik musofir – Mas’ud yodga keladi. Mas’ud ham yo‘lda ajib sarguzashtlarni boshidan kechiradi: zindonga tushadi, masjidda uxlab tush ko‘radi, ammo oxir-oqibat ko‘ngli tilagan murodiga yetadi. Shahriyor ham keshlik musofir o‘laroq safarni azm qilgan.

Navoiy maqbarasi haqidagi boblarda Shahriyor muxlis pozitsiyasidan tanqidiy nuqtayi nazarga ega jurnalist maqomiga o‘tadi. Achchiq-tiziq qochirimlar bilan “Holoti maqbarayi Alisher Navoiy” haqida ma’lumot beradi: *“Obidani tiklashga yillab vaqt va mablag‘ topa olmagan mahalliy ma’muriyat Navoiy hazratlarining ruhi mangu qo‘nim topgan muborak maskanda chog‘roqqina voleybol maydonchasi qurish borasida chinakam tezkorlik va yuksak g‘ayrat ko‘rsatibdi… Ha, maqbara qurilishi chala qolgan bo‘lishi mumkin, lekin sport – sog‘liq garovi, albatta”.*

Shahriyor “Bir kun tuz yegan joyingga qirq kun salom ber” degan maqolga amal qilgan holda, voqelikni jonlantirar ekan, biror marta mehmon bo‘lib borgan davlatidan yozg‘irmaydi. Noqulay holatga tushganlarini latifanamo tarzda hikoya qilsa, isyonlarini jurnalistik madaniyatga rioya qilgan holda bayon etadi. Shahriyor tasvirlagan manzaralarni o‘qir ekanmiz, “O‘tmishga tushib qoldim” degan gapni kutamiz, ammo muallif bu gapni yozmaydi. Faqat kitob so‘ngida O‘zbekistonga qaytgani haqida yozarkan, “kelajakka tushib qolganday edim”, deya e’tirof etadi.

Yuqorida kitob uslubining rang-barangligi haqida to‘xtaldik. Ayni rang-baranglik boshqa asarlardan olingan voqealarning uzukka ko‘z qo‘ygan kabi moslashtirib berilishida ham namoyon bo‘ladi. Xolmuhammad Karimiyning “Qora lolalar” asaridan olingan parcha kitobning yanada mukammal bo‘lishida muhim ahamiyatga ega. Parchada Alisher Navoiy maqbarasini muqarrar bombardimondan qutqarib qolgan o‘zbek askari haqida so‘z boradi. “Shoh G‘oziyg‘a karam avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas”, “Tokaygacha Husayn Boyqaro?”, “Navoiyning qabri ham ochib ko‘rilganmi?” kabi boblarda ilmiy-ommabop uslub ko‘zga tashlanadi. Hirotdagi madaniy obidalarga javobgar idoraning mas’ul xodimi bilan suhbatni Farhod va Xusrav suhbati yanglig‘ ifodalaydiki, bu orqali har ikki suhbatdoshning ma’naviy olami ochila boradi: “Tag‘in savol berdi: “Qay chog‘din o‘lding ishq aro mast?” (Navoiy haqida necha yoshdan beri bilasan?) Tag‘in javob ayladim: “Ruh ermas erdi tang‘a payvast!” (Tug‘ilishimdan avval ham Navoiy-Navoiy deyishardi!)” Mana shu kabi ajib uyg‘unliklar kitobning o‘qishli bo‘lishini ta’minlagan.

Kaminani mutaassir etgan lavhalardan yana biri “Bu majlisga yig‘ilganlar muhabbatga yaqinlardir” bobidagi holat bo‘ldi. Hamma yoqda musiqa taqiqlangan bir sharoitda Navoiy hazratlarining muhib va muxlislari yerto‘lada (!) ul zotning g‘azallaridan bunyod bo‘lgan qo‘shiqlarni jo‘r bo‘lib kuylash sahnasi yurakning nozik torlarini-da chertib o‘tadi.


Kitobning “Ispancha uyat” nomli bobida ayrim qusurlar esga olinadi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va televideniyening omma darajasiga, balki undan ham quyiga tushgan holda mahsulot ishlab chiqarayotgani va bu saviyasiz tasvirlar qo‘shni davlatlarda ham “O‘zbekning tipik obrazi” sifatida ko‘rilayotganidan uyat hissini tuyish faqatgina muallifning emas, balki barcha o‘zbek ziyolisining og‘riqli nuqtasidir. “O‘zbek bo‘lish mashaqqati” bobida o‘z tilini saqlash uchun har kuni ishlab topgan pulining 4500 so‘mini o‘g‘lining o‘zbekcha ta’limiga sarflayotgan ota va rus maktablarida yillab navbat kutadigan bizning ota-onalar qarama-qarshi qo‘yilarkan, o‘quvchi ham “ispancha uyat”ni his etadi…

Xullas, kitobni Hazrat Navoiy ta’biri bilan aytganda, “yig‘lay-yig‘lay tugatdim oxir”. Ehtimolki, muallif ham yig‘lay-yig‘lay bitgan bu asarni. Tugatganimdan so‘ng shunday fikr paydo bo‘ldi: Shahriyor Shavkat ushbu kitobni ijodiy qayta ishlab bir roman yozsa bo‘lgulik ekan, chunki unda ko‘tarilgan masalalar, davr, insonlar – barchasi romandek keng qamrovli janrning o‘ziga xosligini ifoda etadi.

“Hirotga, bobomning huzuriga!” nomli kitobni xatm qilar ekanman, bu asar muallifi hayot, turmush otli po‘rtanalar ichida So‘zni, She’riyatni, Alisher Navoiyni yuksak ixlos ila qalbining to‘rida asrab kelayotgan chin ma’nodagi ziyoli insonlardan biri ekaniga amin bo‘ldim.

ILM YO‘LI

MATEMATIKA — GO‘ZALLIK SAN’ATI



O‘zFA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining differensial tenglamalar laboratoriyasi mudiri, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni sohibi Ravshan Ashurov bilan suhbat

– Ravshan Rajabovich, avvalo, mukofot muborak bo‘lsin. Mukofot ko‘ngilga taskin beradi, ilmiy-ijodiy faoliyat e’tirof etilsa, olim ko‘ngli quvonchga to‘ladi. Ko‘p yillik mehnatlaringiz samarasi bu. Taqdirlangach, ko‘proq nimalarni o‘yladingiz?

– Bu xabarni men Xitoydagi xalqaro kongressdan qaytib, O‘zbekistonga kelganimda, aeroportning o‘zida ustozim, akademik Shavkat Alimovning tabrigidan bildim. Bu men uchun unutilmas lahza bo‘ldi. Kecha mukofotlarni topshirish yig‘inida qatnashdim. Bu kun men uchun hayotimdagi unutilmas, mazmunli kun bo‘ldi. Yuksak mukofot katta sharaf va mas’uliyatdir. Bu mukofotni yigirma yildan ortiq vaqt davomida birga ishlagan ustozlarim, hamkasblarim va shogirdlarimning mehnatiga berilgan baho, deb qabul qilaman. Ayniqsa, ustozlarimga chuqur minnatdorlik bildiraman. Menga ilm yo‘lini ko‘rsatgan, doimo qo‘llab-quvvatlagan insonlarning ishonchini oqlashga harakat qildim va bundan keyin ham shunga intilaman. Bu e’tirofni yangi marralarning boshlanishi, deb bilaman. Yurtimiz ilm-fani rivoji uchun yanada astoydil xizmat qilaman.

– Matematik va fiziklarga hurmatim baland. Otam fizika-matematika muallimi edi. O‘quvchilik yillarim bu fanlarni a’loga o‘qidim. Ammo fizika darsi mahali otam she’rlar o‘qib, lirik chekinishlar qilardi. Shu jihatiga qiziqib, so‘z dardiga yo‘liqdim. Ravshan aka, sizda matematika faniga qiziqish qanday paydo bo‘lgan?

– Uch-to‘rt yoshlarimda sonlarni yozishni o‘rgandim. Keyin eng katta songacha yozib chiqaman, deb boshlaganman: 1, 2, … 798, … 77309 … va hokazo. Keyin o‘sha paytda aqlim yetganki, bu ketma-ketlik tugamas ekan. Shu zayl, sonlarga qiziqib qolganimni eslayman: qo‘shish, ayirish va boshqa arifmetik amallar meni o‘ziga mahliyo qildi. Turli olimpiadalarda qatnashdim. Meni ko‘proq televizorda namoyish etiladigan maktab bolalari uchun matematika olimpiadalariga taklif qilishar edi. Dasturni D.Movashev degan matematik olib borardi. Bu teledasturlarda juda ko‘p savollarga javob berardim. Qizig‘i, maktabimizga respublikamizning turli hududlarida istiqomat qiladigan o‘quvchilardan xatlar kelardi, bir haftada kelgan xatlarga kichikroq qop to‘lardi!

– Men matematik, fizik, biolog, ximik va umuman, tabiiy fan olimlarini ilm-fan lokomotivlari, deb hisoblayman. Ulardagi ilm haqiqatidan biroz og‘ish ham ulkan moddiy, ijtimoiy-ma’naviy o‘pirilishlarga olib keladi. Matematik bo‘lishning mas’uliyati qanday?

– Olim bo‘lish, ayniqsa, matematika kabi aniq fan bilan shug‘ullanish, avvalo, katta mas’uliyatdir. Matematikning asosiy mas’uliyati – o‘z natijasining to‘g‘riligiga ishonch hosil qilish. Teoremani isbotlashda yo‘l qo‘yilgan kichik bir xato ham butun natijani noto‘g‘ri qilib qo‘yishi mumkin. Matematikaning yaxshi tomoni shundaki, bu xatolarni aniqlashning o‘ziga xos tizimi bor. Avval natija ilmiy seminarlarda muhokama qilinadi, boshqa matematiklar savollar beradi, isbotni tekshiradi. Keyin maqola jurnalga yuborilganda, uni mustaqil mutaxassislar – taqrizchilar ko‘rib chiqadi. Shuning uchun matematikada “men shunday deb o‘ylayman”, degan fikrning o‘zi yetarli emas – natijani isbotlash kerak. Olimning yana bir mas’uliyati shogirdlariga to‘g‘ri ilmiy masala qo‘ya bilish bilan bog‘liq.

Masala dolzarb, ilmiy jihatdan qiziqarli va eng muhimi, yechimga ega bo‘lishi kerak. Men yosh tadqiqotchiga masala berayotganimda, imkon qadar uning yechimi haqida o‘zim ham tasavvurga ega bo‘lishim kerak, deb hisoblayman. Umuman olganda, olimning mas’uliyati faqat o‘z tadqiqoti bilan cheklanmaydi. U yosh avlodga, jamiyatga va ilm-fanning kelajagiga ham mas’ul. Shuning uchun olim har bir aytgan so‘zi va e’lon qilgan natijasiga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishi kerak.

– 2005-yili siz bilan Pekinga borgan edik. Maroqli ilmiy safar bo‘lgan edi. Xitoy devori tomoshasiga borayotganda, siz: “Filolog olimlar ikki-uch kunda bir kitobni o‘qib, darrov maqola yozar ekan, to‘g‘rimi?”, deb savol bergan edingiz. Xo‘sh, matematika sohasidagi maqolalar, kitoblar qay yo‘sinda bunyod bo‘ladi? Bitta masalani yechish uchun qancha vaqt kerak?

– O‘zimning eng yaxshi natijamni 2009-yilda boshlab 2019-yilda tugatdim. Bu natija “Rossiya Fanlar akademiyasi ma’ruzalari” jurnalida va garmonik analiz bo‘yicha dunyodagi eng nufuzli nashr – “Fourier alaysis and applications” degan Germaniya jurnalida chop etildi. Maqola atigi yetti bet edi. Lekin bu maqolada 1968-yil sobiq ittifoq fanlar akademiyasi akademigi V.Ilin tomonidan qo‘yilgan muammo hal qilingandi. Aslida, bu masalaning tarixi uzoq: 1915-yili A.Luzin gipoteza e’lon qilgan: funksiya kvadrati bilan integrallanuvchi bo‘lsa, uning Fouriyer qatori deyarli barcha nuqtalarda yaqinlashadi. Bu gipoteza bilan A.Kolmogorov, N.Bari kabi eng kuchli matematiklar shug‘ullangan. Gipotezaning ijobiy yechimini 51 yildan keyin shved matematigi L.Karleson topgan. Lekin karrali Fouriyer qatori uchun Luzin gipotezasi hozirgacha ochiq. Shuning uchun Ilin bu gipotezani soddalashtirib, quyidagi masalani qo‘ydi: funksiya kvadrati bilan integrallanuvchi bo‘lib, biror to‘plamda nolga teng bo‘lsa, bu funksiyaning karrali Fouriyer qatori o‘sha to‘plamning deyarli barcha nuqtalarida yaqinlashadimi? Shu savolga yuqoridagi ishimda ijobiy javob berildi.

– Universitetdagi saboqlarimda matematika bilan adabiyotni bog‘laydigan ma’ruzalarim bor. Negizi matematik bo‘la turib, badiiy adabiyotga ulkan hissa qo‘shgan olimlar xususida gapiraman. Gohida biror asarni burro tushuntirib berayotgan talabaga karra jadvalidan savol beraman. Sizda bu jarayon qanday? Matematikaga doir masalalar yechimi va amaliy tatbiqotini ko‘proq qaysi ijtimoiy fan sohalariga bog‘lashni yoshlarga maslahat bergan bo‘lardingiz?

– Menimcha, matematika faqat tabiiy fanlarning asosi emas. Uning tarix, iqtisodiyot, tilshunoslik, falsafa kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan ham tutashadigan jihatlari ko‘p. Ayniqsa, iqtisodiyot va statistika bilan aloqasi juda kuchli. Tarixdagi juda ko‘p jarayonlarni matematik usullar yordamida tahlil qilish mumkin. Masalan, yosh fan doktori A.N.Kolmogorov vaqtida tarixni o‘rganishda matematikani qo‘llash ustida ilmiy ish olib borgani ma’lum. Lekin men yoshlarimizga bir narsani aytgan bo‘lardim: matematika bilan shug‘ullanuvchi inson adabiyotdan, san’atdan, tarixdan uzoqlashib ketmasligi kerak. Chunki keng dunyoqarash yaxshi matematik uchun juda muhim. Menimcha, buyuk olimlarning ko‘pchiligida shu xususiyat bo‘lgan.

– Dunyoning ko‘plab mamlakatlari oliy o‘quv yurtlarida ma’ruzalar bilan ishtirok etasiz, ilmiy anjumanlarga borasiz. O‘zbek olimlarining bu sohadagi yutuqlari qanday?

– To‘g‘ri, men yiliga kamida beshta xalqaro konferensiyaga ma’ruzachi sifatida chaqirilaman. Masalan, bu yil ikki marta Qozog‘istonga, Bolgariyaga, AQSHning Nyu-York shahriga – Xalqaro matematiklar jamiyatining bosh assambleyasi yig‘ilishiga, so‘ng Filadelfiya-dagi Xalqaro matematiklar kongressiga, 8-avgustdan 22-avgustgacha Xitoyda bo‘lib o‘tgan Kongressga bordim. Xuddi shunday, institutimizning ko‘pgina xodimlari xorijga borib ma’ruzalar o‘qib kelishyapti.

Bunday faollik zamirida, albatta, yurtimizda ilm-fanga, xususan, matematika fanining rivojiga yuksak e’tibor turibdi. Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ilm-fanga, xususan, matematikaga ko‘rsatayotgan e’tibori va yaratib berayotgan imkoniyatlari tufayli O‘zbekistonda matematika bilan shug‘ullanish, yosh matematiklarni tarbiyalash va ilmiy maktablarni rivojlantirish uchun katta sharoitlar yaratilmoqda. Matematika instituti uchun yangi bino qurilgani, matematika fanini rivojlantirishga qaratilgan muhim qarorlar qabul qilingani buning yaqqol dalilidir.

– Bugun SI zamoni, har fan sohasida sun’iy zakoga zarurat bor. Dissertatsiyalarini unga yozdirayotganlar ham yo‘q emas, menimcha. Matematikaga oid ilmiy tadqiqotlarga bu nanotexnologiyalar qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?

– Bilasizmi, hozir sun’iy intellekt barcha yirik xalqaro matematik anjumanlarda muhokama qilinayotgan eng dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Men yaqinda Xitoyda bo‘lib o‘tgan xalqaro kongressda ham bu masalaga katta qiziqish borligini ko‘rdim. Sun’iy intellekt matematika uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ulkan hajmdagi ma’lumotlarni tez tahlil qilishi, murakkab hisob-kitoblarni bajarishi, mavjud natijalar orasidagi bog‘liqliklarni topishi va ba’zi hollarda yangi matematik g‘oyalarni izlashda tadqiqotchiga yordam berishi mumkin. Ayniqsa, sonli hisoblash, matematik modellashtirish, differensial tenglamalarni yechish kabi yo‘nalishlarda uning imkoniyatlari katta. Lekin men bir narsani alohida ta’kidlagan bo‘lardim: sun’iy intellekt matematik olimning o‘rnini bosa olmaydi. Chunki matematikaning eng muhim qismi faqat hisoblash emas – muammoni to‘g‘ri qo‘yish, yangi g‘oya topish, nima uchun aynan shunday natija bo‘lishini tushunish va qat’iy matematik isbot berishdir.

Siz aytganingizdek, afsuski, bugun sun’iy intellekt yordamida dissertatsiya yoki ilmiy maqolalarini tayyor-layotganlar ham yo‘q emas. Bu ilm-fan uchun xavfli. Chunki tayyor matnni olish bilan olim bo‘lib qolmaysan.

Ilmda inson o‘z fikri, o‘z g‘oyasi va eng muhimi, natijaning to‘g‘riligini o‘zi tushunishi kerak. Men yosh matematiklarga sun’iy intellektdan qo‘rqmaslikni, aksincha, undan to‘g‘ri foydalanishni maslahat beraman. Uni yordamchi sifatida ishlatish kerak, lekin miyangiz va ilmiy fikr o‘rniga emas. Menimcha, kelajak matematikasi – inson tafakkuri va sun’iy intellekt imkoniyatlarining yaxshi uyg‘unligida bo‘ladi.

– Haqiqiy matematiklar ham shoirlardek darveshona kayfiyatli bo‘ladi, nazarimda. Adashmasam, Sofiya Kovalevskayaning “Matematiklar biroz shoir bo‘lmasa, hech qachon mukammal matematik bo‘la olmaydi”, degan mazmunda fikri bor. Bu gapga nima deysiz?

– Menimcha, matematika bilan she’riyat o‘rtasida yaqinlik bor. Shoir so‘z orqali go‘zallik yaratadi, matematik esa formulalar, teoremalar va g‘oyalar orqali. Yaxshi matematik natijani ko‘rganingizda ham undagi go‘zallikni his qilishingiz mumkin. Ba’zan juda murakkab bir masalaning sodda va chiroyli yechimini ko‘rib, beixtiyor hayratga tushasiz. Shu yaqinlik tufayli ko‘plab matematiklar she’riyat va adabiyotga ham qiziqish bildirgan.

Hatto matematika bilan bir qatorda she’riyatda ham yaxshi ijod qilgan olimlarimiz bor. Masalan, ustozimiz Abdulla A’zamovni aytish mumkin. U kishi matematika sohasida katta ilmiy maktab yaratgan olim bo‘lish bilan birga, adabiyot va she’riyatni ham juda yaxshi his qiladigan inson.

Menimcha, haqiqiy matematikda ham ma’lum ma’noda shoirona tafakkur bo‘lishi kerak. Chunki yangi matematik natijaga kelish uchun bilimning o‘zi yetarli emas. Tasavvur, sezgi, go‘zallikni ko‘ra bilish va ba’zan boshqalar ko‘rmagan narsani his qilish kerak. Isbot esa keyin keladi. Shuning uchun Sofiya Kovalevskayaning fikriga qo‘shilaman. Matematikada ham ijod bor. Men hatto shunday derdim: matematika – bu faqat aniq fan emas, u ayni paytda ijod va go‘zallik san’atidir.

– Ferma teoremasi yoki Puankare jumbog‘iga o‘xshash qiziqarli masalalar matematiklar orasida hozir ham bormi?

– Bor va hatto juda ko‘p. Matematikada yechimini kutayotgan, yuz yildan ortiq vaqt davomida olimlarni o‘ylantirib kelayotgan muammolar bor. Mening sohamga yaqin eng mashhur masalalardan biri – Navye-Stoks tenglamalarining klassik yechimlari mavjudligi va yagonaligi haqidagi muammo. Bu tenglamalar suyuqlik va gazlarning harakatini matematik jihatdan ifodalaydi. Masalan, suvning oqishi, havoning harakati yoki atmosfera jarayonlarini tasvirlashda shu tenglamalardan foydalaniladi.

Qizig‘i shundaki, tenglamalarning o‘zi XIX asrdayoq ma’lum bo‘lgan, ularning amaliy qo‘llanishi ham juda katta. Lekin uch o‘lchamli holatda ma’lum boshlang‘ich shartlar uchun yechim har doim mavjudmi va u yagona hamda yetarlicha “silliq” bo‘lib qoladimi – mana shu savolga hali to‘liq javob topilmagan. Bu shunchalik muhimki, u Clay Mathematics Institute tomonidan “Ming yillik muammolar” qatoriga kiritilgan. Uni to‘liq yechgan matematikka bir million AQSH dollari miqdorida mukofot belgilangan. Menimcha, matematiklar uchun eng katta mukofot pul emas. Eng katta mukofot – asrlar davomida hech kim yecha olmagan masalani yechib, insoniyatning matematik bilimiga yangi sahifa qo‘shishdir.

– Bugun barcha sohada o‘zbek olimlarining maqomini yuksaltirish uchun nimalarga diqqat qaratish lozim?

– Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish, olimlarning mavqeyini oshirish borasida oxirgi o‘n yil ichida juda katta ishlar amalga oshirildi. Men ularning barchasini sanab o‘tirmayman, buni hammamiz bilamiz. Endi mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish va ayrim muammolarni hal qilishimiz kerak, deb o‘ylayman.

Birinchidan, yosh olimlarning chet tillarni bilishiga jiddiy e’tibor berish lozim. Bugun magistraturani tugatgan, matematikasi kuchli bo‘lgan yoshlarning ayrimlari ingliz yoki rus tilini yetarli bilmagani uchun ilmiy faoliyatda qiynalmoqda. Keyinchalik aspiranturaga kirish va xalqaro hamkorlikda ham bu katta to‘siqqa aylanadi. Shuning uchun tilni aspiranturada emas, maktabda va talabalik davridayoq puxta o‘rgatish kerak.

Ikkinchidan, xorijiy olimlar bilan birgalikda doktorantlar tayyorlash tajribasini kengaytirish lozim. Masalan, Qozog‘istonda doktorantga mahalliy va xorijiy ilmiy rahbar biriktiriladigan tizim bor. Men buni shunchaki, nomigagina “xo‘ja ko‘rsin” uchun emas, haqiqiy ilmiy hamkorlik sifatida amalga oshirish kerak, deb hisoblayman.

Xorijiy rahbarning mehnati, doktorantning borib-kelishi va ilmiy amaliyoti uchun mablag‘ ajratilsa, bu xarajat emas – ilm-fanga investitsiya bo‘ladi. Men bunday hamkorlik natijasida yetishib chiqqan yosh olimlarni bilaman, bugun ularning o‘zlari professor bo‘lib, yangi avlod olimlarini tayyorlamoqda.

Uchinchidan, yosh olimlarimizni xalqaro konfe-rensiyalarga ko‘proq yuborish kerak. Bizda yosh tadqiqotchining xorijga chiqishi ko‘pincha moliyaviy imkoniyatga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Menimcha, iqtidorli yosh olim uchun bunday anjumanlar shunchaki safar emas, ilmiy maktab va yangi hamkorliklar uchun imkoniyat bo‘ladi.

To‘rtinchidan, fan, ta’lim va sanoat integratsiyasini izchil yo‘lga qo‘yish kerak. Bugungi ilm-fan chegara bilmaydi. Masalan, zamonaviy matematikaga fizika, biologiya, informatika va boshqa fanlar bilan hamkorlik qilish tobora ko‘proq zarur bo‘lmoqda. Xuddi shuningdek, fizik yoki biolog ham zamonaviy matematik usullarni bilishi shart. Shuning uchun universitetlarda fanlarni bir-biridan ajratib qo‘ymasdan, ularning tutashgan joylariga ko‘proq diqqat-e’tibor lozim. Shu yo‘nalishlarga jiddiy e’tibor bersak, o‘zbek olimlarining xalqaro ilmiy maydondagi mavqeyi yanada yuksaladi. Eng muhimi, biz bugungi yosh olimga nafaqat bilim, balki dunyo ilm-faniga chiqish imkoniyatini ham berishimiz kerak.

– “Bahodir menga shu savolni bersa, butun qalbimni ochib, o‘z qarashlarimni bayon qilar edim”, deb qaysi savolni kutgan edingiz?

– Menga: “Siz 2004-yildan 2006-yilgacha O‘zbekiston Milliy universiteti rektori bo‘lib ishladingiz. O‘sha davrdagi qaysi ishlarni eslaysiz? Nimalar o‘rgandingiz?” – degan savol ham muhim. Bu ikki yil mening hayotimdagi eng mazmunli va hayajonli davrlardan biri bo‘lib qoldi.

Eng avvalo, hech qachon yodimdan chiqmaydigan bir voqeani eslayman. Meni universitet jamoasiga tanishtirish uchun o‘sha paytdagi Bosh vazirimiz, hozirgi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kelgan edi. 2005-yil yanvar oyidan boshlab Talabalar shaharchasini tubdan qayta qurish ishlari boshlandi. Bunga bir nechta vazirliklar jalb qilindi. Juda qisqa vaqt ichida bu joy zamonaviy shaharchaga aylandi. Bugun ortga qarab, o‘sha ikki yil menga nafaqat rahbarlik tajribasini, balki katta mas’uliyat maktabini berganini tushunaman. 2006-yildan Matematika institutida ishlay boshladim. O‘sha paytda olimlarning maoshi yuqori emas, institutdagi sharoitlar ham bugungidek emas edi.

Eng achinarlisi, aspiranturaga kirib, ilm bilan shug‘ullanishni istagan yoshlar juda kam edi. Institutimiz o‘sha paytda asosan grantlar asosida ishlardi: grant bo‘lsa – ish bor, grant bo‘lmasa – ish yo‘q. Olim esa ertangi kunidan xavotir olmay, xotirjam ilm bilan shug‘ullanishi kerak.

Menimcha, ilmiy muvaffaqiyatning muhim shartlaridan biri ham shu.

Keyingi yillarda, ayniqsa, 2017-yildan boshlab institutlarning davlat byudjetiga o‘tkazilishi bilan vaziyat tubdan o‘zgara boshladi. Olimlar uchun barqaror sharoit yaratildi. Buning natijasini o‘z faoliyatimda ham ko‘raman. Bugungi kungacha besh nafar fan doktori va o‘n uch nafar fan nomzodi tayyorlashga muvaffaq bo‘ldim. Shogirdlarim bilan hamkorlikda o‘nga yaqin monografiya va monografiyalarga boblar yozdik. Hatto magistraturada o‘qib yurgan shogirdim o‘sha davrning o‘zida PhD dissertatsiyasini tayyorlab, muvaffaqiyatli himoya qildi. Bugun bundan ham quvonarli holatlar bor. Masalan, hozir uchinchi kursda o‘qiyotgan talabam juda yaxshi ilmiy natijaga erishib, akademik Shavkat Arifjanovich Alimov tavsiyasi bilan maqolasini Fanlar akademiyasi jurnaliga taqdim etdi. Bu men uchun katta quvonch. Chunki ustoz uchun shogirdining yutug‘idan katta mukofot yo‘q. Shu yillar davomida yuzdan ortiq xalqaro konferensiyalarda ilmiy ma’ruzalar bilan qatnashdim.

Ustozim, akademik Sh.A.Alimov bilan birgalikda matematik analiz bo‘yicha uch tomlik darslik yozdik. Bu kitob qayta nashr etildi va bugungi kunda universitetlar uchun asosiy darsliklardan biri sifatida foydalanilmoqda.

Shuning uchun universitet rektori bo‘lib ishlagan o‘sha ikki yilni men oddiygina bir lavozim davri deb emas, butun keyingi hayotim va ilmiy faoliyatimga katta ta’sir ko‘rsatgan maktab deb hisoblayman.

– Ilm sohasini tanlayotgan yoshlarga zarur maslahat va tilaklaringiz bo‘lsa, marhamat.


– Yoshlarga avvalo shuni aytgan bo‘lardim: yaxshi o‘qing va o‘z ustingizda ishlashdan hech qachon to‘xtamang! Yaxshi ta’lim insonga hayotda ko‘proq tanlov va imkoniyat beradi. Bugun yoshlarimiz uchun ilm olish, zamonaviy bilim va kasb egallash uchun katta imkoniyatlar yaratilgan. Bundan 10-20 yil oldin olimlar va pedagoglarning maoshi bilan oilani munosib ta’minlash qiyin edi. Shuning uchun ko‘plab bilimli insonlar tadbirkorlikka yoki boshqa sohalarga ketishga majbur bo‘ldi. Bugun esa vaziyat o‘zgardi: ilm-fan va ta’lim sohasida ishlash uchun risoladagidek sharoit yaratilgan. Yaxshi bilim olgan yoshlar nafaqat yurtimizda, balki dunyoning eng nufuzli universitetlari va ilmiy markazlarida ham o‘z o‘rnini topishi mumkin.

Bugun chegaralar kengaydi – bilim va qobiliyat bo‘lsa, chet elda o‘qish, stajirovka o‘tash, xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlari mavjud.

Shuning uchun yoshlarga tilagim: vaqtingizni qadrlang, yaxshi ustoz toping, chet tillarini o‘rganing, ko‘p kitob o‘qing va o‘zingiz tanlagan sohani chin dildan seving. Ilmda natija darhol kelmaydi. Lekin sabr, mehnat va qiziqish bo‘lsa, albatta, o‘z samarasini beradi. Eng muhimi, o‘zingizga va qobiliyatingizga ishoning. Mening hayotimda ham ilmga sarflangan vaqt hech qachon zoye ketmagan. Bugungi mukofotni ham ana shu ko‘p yillik mehnatning munosib natijasi, deb bilaman.

– Samimiy suhbat uchun rahmat.

Bahodir KARIM suhbatlashdi.



“Donishmand va olimlarning xulqlaridan o‘rnak olish yaxshi xulqni tiriltiradi, yomonni yo‘q qiladi.

Abu Rayhon BERUNIY

QUTLOV



Zohid ISLOMOV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi professori,
“Imom Buxoriy” ordeni sovrindori

MA’NAVIY MEROS MAKONI

Mustaqilligimizning 35 yillik shodiyonalari O‘zbekiston va dunyo bo‘ylab vatandoshlarimiz tomonidan keng nishonlanmoqda. Mana shu munavvar lahzalarda aytilgan gaplar to‘liq samimiyatga yo‘g‘rilgan bo‘ladi. Yangi O‘zbekiston davridagi o‘zgarishlar tahsinga loyiq va unga yetarli so‘z ham topa olmaymiz. Tarixlar guvohki, yurtimiz tamaddunlar beshigi hisoblanadi. Prezidentimiz bejiz Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazini ochgani yo‘q. Bu muazzam dargoh ko‘rgan odamni hayratga soladi. U yerda ming yillar avval ham zaminimizda ilm-fan, madaniyat, san’at keng rivojlanganiga guvoh bo‘lamiz. Minglab qo‘lyozma asarlar, manbalarning o‘zi butun dunyoni ilmga to‘ldirgan, haliyam ulardan manfaat olish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, dunyo olimlari “O‘zbekiston – allomalar yurti”, “O‘zbekiston – qo‘lyozmalar xazinasi, ma’naviy meros makoni” deb atashadi.

Bir misol: so‘nggi yillarda Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining ochilishi ulug‘ alloma merosiga alohida ruh bag‘ishladi. Natijada hazratning 24 ta asari mavjud ekani aniqlandi. Birgina “Sahihul Buxoriy”ning dunyo fondlarida mingdan ziyod qo‘lyozmasi mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Ularni kim o‘rganishi kerak avvalo? Albatta, o‘zbekistonlik olimlar, ta’kidlab o‘tishim kerakki, yosh avlod. Bu borada davlatning o‘zi yo‘lboshchi va ko‘makchi bo‘lib turibdi. Keyingi yillarda islom olamida tan olingan daholarimiz nomiga ochilgan xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarida aynan yoshlar bilan birgalikda qadimiy merosimizni o‘rganishga azmu qaror berilgan.

Imom Buxoriy nomi bilan atalgan mukofotga loyiq ko‘rilganim, avvalo, akademiyamiz, Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrasi jamoasining mehnati natijasidir. Men yurtdoshlarimizni yaqinlashib kelayotgan Mustaqillik kuni bilan chin dildan tabriklab, barchaga yangi kuch-g‘ayrat, shijoat va yuksak muvaffaqiyatlar tilayman!



Nasiba TALIPOVA,
“Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlangan marhum Hojimurod Talipovning turmush o‘rtog‘i

XOTIRAGA EHTIROM

Muhtaram Prezidentimizning Farmoni bilan turmush o‘rtog‘im – O‘rmon xo‘jaligi agentligining cho‘llanishga qarshi kurashish va degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash bo‘limi sobiq bosh mutaxassisi, biologiya fanlari nomzodi Hojimurod Talipovga “Do‘stlik” ordeni berildi. Mukofotni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddinjon Ismoilov xalq vakillari ishtirokida tantanali ravishda menga topshirdi. Bu e’tibordan boshimiz ko‘kka yetdi. Demak, olimning butun faoliyati davomida ilm-fanda, O‘zbekistonni yashil makonga aylantirishda qilgan xizmatlari yerda qolmabdi, Prezidentimiz judayam yuksak baholabdi, umr zoye ketmabdi. Bu siylov ularning izida qolgan farzandlari, shogirdlari, boshlagan ishlarining davomchilariga yangi kuch va ruh berdi.

Davlatimiz rahbari qalbimizdagi judolik azobiga, dardimizga malham bosganday bo‘ldi. Tilagim, yurtimiz hamisha tinch bo‘lsin. Umr yo‘ldoshim orzu qilgandek, atrof-muhit ozoda bo‘lib, hamma yoq yashil makonga aylansin. Izdoshlari, shogirdlari yanayam yuqori cho‘qqilarga chiqishlariga tilakdoshman!

KINO OLAMIDA

HAQIQIY BAHO



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, taniqli kinorejissyor Jahongir QOSIMOV bilan suhbat

– Jahongir aka, kino olamiga kirib kelganingizga yarim asr to‘ldi. Ilk filmlaringizni ko‘rganlarning yarmi nuroniy faslda, yarmi ularning mag‘zini chaquvchi o‘rta yosh avlodi. Yoshlar ham “Changak”, “Dev bilan pakana”, “18-kvadrat”, “Suv yoqalab”, “Shaytanat” kabi badiiy filmlar ta’rifini tinglab, yangicha tafakkur bilan tomosha qilyapti. Istiqlolga erishib, sovet qoliplaridan xoli bo‘lgan, milliy xarakter aks etuvchi filmlar yaratishda peshqadamlardansiz. Ayniqsa, so‘nggi yillarda milliy kino san’atini ko‘tarishda salmoqli hissangiz bor. Bu yil ikkita filmdan iborat “Osmoni falaklarda” kinokartinasining premyeralari ko‘tarinki ruhda o‘tkazildi. Suhbatni ana shu qaynoq ijod mahsulining yaratilish tarixidan boshlasak.

– So‘nggi yillarda davlat bilan birga jamiyat ham o‘zgardi. Odamlarning dunyoqarashida tub burilish yasaldi. O‘z-o‘zidan bo‘ldi, deysizmi? Yo‘q, albatta. Bularning zamirida yangi zamon islohotlari turibdi. Xalq yangicha tafakkur bilan yangicha hayot uchun harakatga keldi. Shunday paytda adabiyot va san’at vakillari jim qarab turishi mumkinmi? Biz ham qo‘limizdan kelgancha yangi asarlarni taqdim etishga kirishdik.

Kino tanqidga eng ko‘p nishon bo‘ladigan sohalardan. Chunki ijod erkinligi doim ham ijobiy erkinlik degani emas. Demak, yengil-yelpi mavzularda saviyasi hamin-qadar bo‘lgan filmlar, telenovellalar, umuman, kinomahsulotlar maydonga chiqishi tabiiy. Mana shu joyda professional ijodkorlar ham xalqqa o‘z mahsulotini taqdim etishi kerak. Shunda tanlov imkoni paydo bo‘ladi. Biz hozir shuning harakatidamiz. Kinorejissyorlarning har biri o‘z yo‘li, tutumiga ega. Masalan, o‘zim yangi film g‘oyalarini badiiy kitoblardan olaman.

Siz ta’kidlagan ikkala film ham O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonning “Osmoni falaklarda” kitobiga kiritilgan juft hikoya asosida dunyoga kelgan. “Bir kishilik aviahalokat” hikoyasi “Aviaparvozning yagona qurboni”ga, “Osmoni falaklarda” esa “Osmon qiroli”ga aylandi. Boshida bitta loyiha bo‘lishi kerak edi: 40-45 daqiqadan har biriga vaqt ajratmoqchi edik. Lekin suratga olish paytida o‘zgarishlar bo‘lib, qariyb ikki barobarga oshdi davomiyligi. Tasavvur qilyapsizmi, asar bizning ixtiyorimizdan chiqib ketdi. Bugungi tomoshabin 2 soat-u 35 daqiqalik filmni ko‘rishga toqati yetmasligini o‘yladik. Ijodiy jamoa bilan maslahatlashib, ikkita filmga aylantirdik. Premyeralar orasida ham bir yarim oy vaqt bor. Aslini olganda, ikkita mustaqil mavzu – ikki film. Birinchisi – og‘riqli muhabbat, ikkinchisi – insonning o‘zligi haqida. Kinoda hikoyada yozilgan bir necha qatlamli mavzular, muammolar, dardlarning yarmini olib chiqqan bo‘lsak ham, o‘zimni baxtli deb hisoblayman. Bu borada Karim Mirhodiyev, Yulduz Rajabova, Merdan Matveliyev, Abbos Ibrohimov kabi iste’dodli aktyorlar tufayli maqsadimizga erishdik, deb o‘ylayman.

“Aviaparvozning yagona qurboni” filmi bir necha oydan beri Milliy kino san’at saroyida qo‘yilyapti. Ko‘rganlarda bitta e’tiroz: nega yigit o‘lishi kerak oxirida? Shu masalada muallifga murojaat qilganimizda, aytdiki: *“Tushuning, agar bu bola tirik qolsa, bu g‘avg‘olar hech qachon tugamaydi. Ikkalasi ham bu chigal yo‘ldan qaytmaydi. Personajning tabiati shunaqa. Anna Kareninani eslang. Tolstoy aytgan edi-ku, men ilojsizman, o‘zini o‘zi tashlab yubordi, ushlab qola olmadim, degandek”.* Sizga bir voqeani aytay. Milliy pedagogika universitetidagi uchrashuvda filmni ko‘rsatdik. Shunda talabalardan biri: “Bu yerda qurbon kim?” deb so‘radi. Bahsli. Men aytdimki, bu yerda muhabbat qurbon bo‘ldi.

Shuhrat Abbosov mening domlam bo‘lgan. U kishidan bir saboqni doim yodda tutaman: “Senda ikkita ssenariy turibdi. Bittasining syujeti zo‘r, ikkinchisida xarakter zo‘r. Sen ikkinchisini tanla. Chunki xarakterlar doim, xohlaysanmi-yo‘qmi, qarama-qarshilik keltirib chiqaradi. Shunda xohlagan narsangni o‘sha xarakter orqali ochib berasan”. Zamonaviy tomoshabinning talabi ham shu. Dunyoda ham tomoshabin shovqin-suron, noodatiy, kutilmagan voqealardan ko‘ra, kuchli xarakter ochib berilgan filmlarga qiziqish bildiryapti. Yangi ikki film ham ana shu talabga javob beradi.

– Ikki film, aktyorlar xususida kuyunib, goh faxrlanib gapirdingiz. Ruhiyatingiz kino olamiga kirib ketdi, menimcha. Ijod haqida gapirganda shuncha tug‘yon bo‘lsa, ijodning o‘zi qanday shiddatli kechar ekan...

– Aslida, men aktyor bo‘lishni xohlardim, rejissyorlik xayolimga kelmagan. O‘qishga Abduraim Abduvahobov bilan birga tayyorgarlik ko‘rganman. Kinolarda kichik epizodlarda ham o‘ynaganman. Imtihonga kelganimda, Tursunboy Isroilov degan domla meni kuzatdi-da, “Yo‘q, sendan aktyor chiqmaydi. Sening ichki nazoring haddan tashqari kuchli”, dedi. Shunaqa xafa bo‘ldim. Keyin armiyaga chaqirishdi. Xizmatda siyosiy yo‘riqchimiz bo‘lardi, bir kuni so‘rab qoldi: “Ko‘p kitob o‘qiyapsan, kim bo‘lmoqchisan o‘zi?” Aytdim. “Sen rejissyor bo‘lgin. Rejissyor spektakl qo‘yadi. Keyin istasang xohlagan rolingni o‘ynayverasan”, dedi. “Yo‘g‘-e”, dedim. Uning rafiqasi harbiy qismda kutubxona mudirasi edi. Menga rejissura to‘g‘risida kitoblarni topib berdi. Atoqli rejissyorlar Efros, Tovstonogov asarlarini tushunib-tushunmay o‘qishni boshladim. Lekin kino xayolimda yo‘q edi. Xayolimda teatrda ishlayman, Tovstonogov bo‘laman, Stanislavskiy bo‘laman, degan o‘yda institutga rejissura bo‘yicha hujjat topshirdim. Keyinchalik yo‘lim kinoga burildi, o‘zim rol o‘ynashim mumkin bo‘lgan vaziyatlar bo‘ldi. Lekin rejissyor Jahongir Qosimov hech qachon aktyor Jahongir Qosimovni syomka qilolmaydi, degan xulosaga keldim. Axir, Sergey Bondarchuk emasdim-da.

Aktyor bo‘lish uchun boshqacha tug‘ilish kerak ekan. Aktyorlarga mehr-muhabbatim juda kuchli. Ularni boshqa bir sayyoraning odami bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman hanuz. Shundanmi, o‘zim ham aktrisa bilan oila qurganman.

– Bondarchuk o‘zi rejissyorlik qilgan “Urush va tinchlik”, “Inson taqdiri” filmlarida bosh rollarni ijro etganiga ishora qildingiz. Bu san’at dahosining qimmatli fikri yodimga tushdi: “Kino yarim ijod, yarim ishlab chiqarish korxonasi degan gap”. Biroq bugun bu san’atning to‘liq sanoatlashib ketayotganiga nima deysiz?

– O‘zgarishlar davrida shunaqa bir “vabo” tarqaydi. Bu o‘tib ketadigan jarayon. Vaqt kerak, xolos. Yuqorida ham aytdim, qo‘shimcha qilamanki, arzon-garov asarlar abadiyatga daxldor emas. Balki saqichday hammaning og‘zida chaynalishi mumkin, biroq uning taqdiri, oxir-oqibat, axlat qutisi. Kino xarajatsiz bo‘lmasligi turgan gap. Avval kino to‘liq davlat ixtiyorida edi: o‘zi buyurtma berib, o‘zi tarqatardi. Odamlar uchun ham boshqa ermak yo‘qligidan berilgan kinoga termilib o‘tirgan. Endi tanlov paydo bo‘ldi xalqda. Shu bilan birga, endi kinochilar oldida reklama uchun, zamonaviy tilda “piar” deydi, katta mablag‘ yo‘naltirish ehtiyoji tug‘ildi. Shunday ekan, ko‘p narsa moliyaviy masalaga taqaladi. Bu faqat bizda emas, butun dunyodagi holat. Ixtiyor tanlovchida, tanlovchining ixtiyori esa didi, saviyasi, axloqiga bog‘liq.

Yana bir gap: globallashuv jarayoni milliy kinomizga ham ta’sir qilmay qolmayapti. Kinoda o‘zligimizni, aktyorlarimizda o‘z qiyofasini yo‘qotish xavfi tug‘ildi. Oldingi kinolarni, spektakllarni ko‘ring: har bitta aktyorning o‘ziga xos qiyofasi, ajralib turuvchi ovozi, umuman, o‘z “men”i bor edi. Hozir yosh aktyorlar bir-biriga o‘xshaydi, ajrata olmaysiz. Hatto, o‘rta avlod vakillariga ham yuqyapti bu. Gap faqat imijda emas, dunyoqarashdagi bir xillikda. Siz Shukur Burhonov, Olim Xo‘jayev, Nabi Rahimovga qarang! Ular teatr yo dublyajga borsa, ko‘chada ko‘rgan odam to‘xtab qolardi. Hayotda ham savlat-salobatini saqlab qolgandi. Ularning o‘rnini bosib bo‘lmagan.

Bir vaqtlar yosh talant deb takror-takror aytilgan Bobur Yo‘ldoshev, Ulug‘bek Qodirov, Alisher Uzoqov, Adiz Rajabov kabi aktyorlar ham ulg‘aydi. Bular mehnat orqali o‘z qiyofalarini yaratdi. Endi san’atga kirib kelayotgan yoshlar ham vaqtni boy bermay o‘zini topishi kerak. Umr o‘tib ketadi. Muhim qoida bor: bir narsaga erishish uchun jiddiy mehnat qilish kerak. Diplom olgan bilan aktyor bo‘lib qolavermaydi odam.

– Yoshlarga atalgan tavsiya-laringiz bilan o‘rtoqlashsangiz. Axir, ertangi san’atimiz taqdiri bugungi yigit-qizlarning iste’dodi va harakatiga bog‘liq-ku…

– Inson qaysi ishga qo‘l urmasin, mehr berishi kerak. Hozircha pul uchun, tanilish yo boshqa maqsadda saviyasiz ishlarga qo‘l ursam, hechqisi yo‘q, keyin katta film qilaman, degan xayol – puch xayol. Kema sayoz joyda cho‘kadi, degan gap bor. Bu qarashdan voz kechish kerak. Chunki hayot kecha ham emas, ertaga ham emas. Hozir qilinayotgan ish – haqiqat, haqiqiy baho. O‘zini aldashdan yomoni yo‘q.

– Sir bo‘lmasa, bugun qaysi loyihalar bilan bandsiz?


– Bundan 10-15 yil oldin ta’sirli bir hikoya o‘qigandim – “Dasht-u dalalarda” degan hikoya. Hajmi chog‘roq, voqeasi ham oddiygina. Lekin undagi hayot falsafasi, muhabbat mojarosi, oila rishtalari… Umuman, dahshatli hikoya. Murod Muhammad Do‘st degan yozuvchi mana shu hikoyadan tug‘ilgan. Ungacha ham yozgan, lekin men keyingilarini professional adib ijodi deb bilaman. Mana shu mo‘jaz asar Qodiriy, Qahhor hikoyalari bilan bir safda turadi, nazarimda. Nazar Eshonqul ta’biricha, Murod aka shu hikoyani yozib, boshqa yozmaganida ham adabiyotda qolardi. Buni bir necha marta ekranlashtirishmoqchi bo‘lishgan. Muallif yo‘q degan. O‘zi ham ssenariylar yozardi. Yaqinda shu hikoyani suratga olishga rozilik berdi. Hozir shuning ustida ish boshlayapmiz. Xudo xohlasa, kelasi yili shu paytga tugatsak kerak.

– Suhbatimiz so‘ngida tilak-laringiz bo‘lsa, marhamat.

– Bugungi osoyishta va farovon hayotimizning qadriga yetib, yurtimiz taraqqiyotiga har birimiz o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak. Zero, Vatan ravnaqi – barchamizning umumiy maqsadimiz, kelajagimiz esa bugungi ezgu ishlarimizga bog‘liq. Shu muqaddas yurtda yashayotgan har bir insonning qalbida Vatanga muhabbat, yurt taqdiriga daxldorlik va kelajakka ishonch tuyg‘usi barqaror bo‘lsin. Yurtimiz tinch, xalqimiz hamisha ahil va birdam bo‘lsin. Mustaqilligimiz abadiy, xalqimiz farovon bo‘lsin!

– Istiqlol zahmati va nashidasini ijodkorlar teranroq his etadi. Sizga ham bu qutlug‘ ayyom muborak bo‘lsin! Yangi ijodiy faoliyatingiz-da muvaffaqiyat tilaymiz. Katta rahmat!

Zarnigor IBROHIMOVA suhbatlashdi.



“Iste’dodning muhim belgisi – odam nimani xohlayotganini yaxshi bilishidadir.

Pyotr KAPITSA

IZHOR



**Dilbarxon MAMAJONOVA,
Qonunchilik palatasining
Xalqaro ishlar, mudofaa va
xavfsizlik masalalari qo‘mitasi
a’zosi,
“Do‘stlik” ordeni
sovrindori**

ISHTIROKCHIDAN TASHABBUSKORGA AYLANDIK

Agar o‘tgan yillarni sarhisob qiladigan bo‘lsak, mamlakatimiz juda katta islohotlar, xalqaro tashabbuslar markazida turibdi, shu bilan birga, bizning dunyoga, dunyoning bizga qarashi ijobiy tomonga o‘zgardi. Xalqda so‘z bor-ku, nazar o‘ngdan tushdi, degan.

E’tibor bersak, yaqingacha ham davlatimiz BMT kabi xalqaro tashkilotlar chiqargan rezolyutsiya, deklaratsiya va konvensiyalarni ratifikatsiya qiladigan davlat edi. Bugun O‘zbekistonning o‘zi tashabbuskorga aylandi. Muhtaram Prezidentimiz ilgari surgan g‘oya va tashabbuslar xalqaro huquq bazasini boyitib, umumjahon maydonida e’tirof etilmoqda.

Bu jarayonga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi ham munosib hissa qo‘shishga harakat qilmoqda. Qonunlarni qabul qilishda avvalo inson qadriga e’tibor qaratilayotgani xalqimizga ma’qul kelyapti. Fuqarolarning parlamentga bo‘lgan ishonchi ortyapti, bu o‘z navbatida, deputatlarning mas’uliyatini oshirmoqda.

Qaynoq jarayonlar bilan mustaqilligimizning 35 yillik bayramiga ham yetib keldik. Yurtdoshlarimizni ulug‘ ayyom bilan tabriklayman! Yurtimizda tinchlik bo‘lsin, mustaqillik abadiy bo‘lsin! Ilohim, har bir xonadondan bayram shukuhi hech qachon arimasin!

JAHON AYVONIDA

SI SOLIQ TO‘LASIN

Microsoft asoschisi Bill Geyts sun’iy intellekt (SI) bo‘yicha o‘z xavotirlarini bildirdi. U ishchilar o‘rnini egallayotgan SI uchun yangi soliqlarni joriy etish haqida maqola e’lon qildi.



Microsoft asoschisining aytishicha, bunday soliq inson mehnatining tez sur’atda qisqarishini biroz sekinlashtiradi. Shuningdek, bu odamlarni malaka oshirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish uchun mablag‘ yig‘ishga yordam beradi.

AQSH XITOY KIBERNISHONIDA

AQSH rasmiylari mamlakatning dav-lat tashkilotlari hamda maxfiy idoralа-riga kiberhujumlar uyushtirgan Xitoy xakerlar tarmog‘i faoliyatini to‘xtatdi. Qo‘shma Shtatlar Adliya vazirligi xakerlik operatsiyasida foydalanilgan QScan va



QTRouter platformalariga tegishli domenlarni musodara qilganini bildirdi. Bu haqda Reuters xabar berdi.

Xakerlar hujumi nishoniga Adliya va Energetika vazirliklari, NASA, Federal zaxira tizimi, Senat hamda Sog‘liqni saqlash xizmati va Milliy salomatlik institutlari tushgan. Shuningdek, AQSH va Janubiy Koreyadagi to‘rtta xususiy kompaniya ham kiberhujumdan zarar ko‘rgan.

DARSLIKLARDA HAQIQAT AKS ETSIN



Qozog‘iston prezidenti Qasim-Jomart Toqayev mas’ullarga ishonchsiz tarixiy ma’lumotlar berilgan o‘quv materiallarini qayta ko‘rib chiqishni topshirdi. Uning so‘zlariga ko‘ra, maktab o‘quvchilariga aslida bo‘lmagan qahramonlar va voqealar haqidagi afsonalar o‘qitilmasligi kerak, deb xabar berdi “Exclusive.kz”.

Davlat rahbari avvalroq hukumat maktab darsliklarida 700 dan ortiq qo‘pol xatolik aniqlangani haqida xabar berganini eslatib o‘tgan. Prezidentning fikricha, bunday kamchiliklar ta’lim sifatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

QONUNBUZARLAR XORIJGA CHIQARILMAYDI



Xitoyda 15-sentyabrdan boshlab mamla-katga kirish va chiqish bo‘yicha yangi qoidalar kuchga kiradi. Tegishli qarorni Xitoy Xalq Respublikasi Davlat kengashi qabul qildi.

Hujjatga ko‘ra, xorijda milliy xavfsizlik va mamlakat manfaatlariga tahdid soluvchi noqonuniy yoki jinoiy harakatlarni sodir etgan Xitoy fuqarolarining chet elga chiqishi vaqtincha cheklanadi.

HUQUQSHUNOSLAR KERAK EMAS



“Tolibon” Afg‘onistondagi xususiy uni-versitetlarda huquq, siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar yo‘nalishlarini bosqichma-bosqich tugatish haqida topshiriq berdi. Bu haqda Hasht-e Subh Daily nashri qo‘lga kiritgan hujjatda aytiladi.

Hujjatga ko‘ra, qaror “Tolibon” Rahbarlik kengashi tomonidan muhokama qilingan va qabul qilingan. “Tolibon” ushbu qarorni ikki sabab bilan izohladi: bu fakultetlarga talabalar juda kam hujjat topshirmoqda hamda bitiruvchilar uchun ish o‘rinlari yetarli emas.

VARRAK UCHIRISH TAQIQLANADI

G‘azo sektorida ota-onalarga farzand-larining varrak uchirishiga yo‘l qo‘ymaslik so‘raldi. Bu haqda “Reuters” xabar berdi.

Qayd etilishicha, so‘nggi bir oy ichida G‘azodan Isroil hududiga bir nechta varrak uchib o‘tgan. Ularning yondiruvchi moddalar olib yurgani aniqlanmagan bo‘lsa-da, chegara yaqinidagi Isroil aholisi bundan xavotirga tushgan.



Isroil Bosh vaziri Binyamin Netanyaxu avvalroq G‘azodan Isroil tomon varrak, shar yoki dron uchirilishi davom etsa, bunga aloqador shaxslar nishonga olinishi va varraklar uchirilayotgan hududlar evakuatsiya qilinishini bildirgan.

YAXSHILAR YODI

TEATR NAHRI G‘AVVOSI

O‘tgan asrning boshlarida Turkiston uchun mutlaqo yangi soha – san’atshunoslik va uning bir qirrasi bo‘lgan teatrshunoslik fani kirib keldi va rivojlana bordi. Biroq o‘lkada sodir bo‘lgan katta o‘zgarishlar, siyosiy qatag‘on to‘lqini bu sohani sun’iy ravishda to‘xtatib qo‘ydi. 1945-yilda Teatr san’ati institutining tashkil etilishi munosabati bilan bu sohalar qayta tiklandi. Asrning 50–60-yillarida bir guruh milliy kadrlar voyaga yetdi. Shulardan biri san’atshunoslik fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Toshpo‘lat Tursunov edi.

Toshpo‘lat Tursunov 1932-yili Toshkent viloyatining Tirsakobod Darxoni mavzeyida ziyoli oilasida dunyoga keldi. Shu yerdagi o‘rta maktabda tahsil oldi. Maktabni tugatmayoq ayrim do‘stlari bilan to‘g‘ri Beshyog‘ochga kelib, Teatr san’ati institutiga hujjatlarini topshirdi. Jussasining kichikligiga qaramay bilimi kuchli bu yigitcha dastlabki suhbat chog‘idayoq ustozlarining hurmatini qozondi, imtihonlardan muvaffaqiyatli o‘tib, institutga qabul qilindi. Tahsil chog‘i teatr san’ati, dramaturgiya, adabiyot, falsafa fanlari bilan chuqur shug‘ullandi. Rus tilida erkin so‘zlash va yozish malakasini orttirdi. Sohasining sir-sinoatini puxta egalladi. Institutni tugatgach, san’at muassasalarida faoliyat ko‘rsatdi. Teatr san’ati institutida dars bera boshladi.

U O‘zbekiston Fanlar akademiyasining San’atshunoslik instituti aspiranturasiga qabul e’lon qilingach, hujjatlarini topshirdi. Bu vaqtga kelib, institut Toshpo‘lat Tursunovni ilmiy xodimlikka chaqirib olgan edi. Institutning yirik asarlaridan biri bo‘lgan “O‘zbek sovet teatri” kitobini yevropalik mutaxassislar bilan birga tayyorlashda ishtirok etib, o‘zini olim sifatida namoyon etdi.

Domla realizm muammosi ustida jiddiy tadqiqot olib bordi. Eski o‘zbek alifbosini o‘rgandi va 1920–1930-yillar matbuotida e’lon qilingan barcha maqola, taqriz va tanqid, jurnalistlarga xos chiqishlarni sinchkovlik



Toshpo‘lat Tursunov va Shukur Burhonov

bilan kuzatib, tahlil-u tanqidiy nazardan o‘tkazdi, muammo janrining nozik jihatlarini kashf etdi. Yosh olimni Ibrohim Mo‘minov, Izzat Sulton kabi ustozlar qo‘llab-quvvatladi. 1965-yilda Moskvada ilmiy ishini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Domla turli yillarda sahnalashtirilgan spektakllarning muhokamalarida muntazam ishtirok etib, o‘zining mantiqiy fikrlari bilan asarning yutuq va kamchiliklarini atroflicha ko‘rsata olgani bois, ustozlar va teatr arboblari oldida bilimdon va rostgo‘y tanqidchi sifatida e’tibor qozondi. Esimda bor, 80-yillar boshida bir muhokamada u kishi o‘n daqiqa gapirdi. Shunda spektakl tahlilidan to‘lqinlanib ketgan ulug‘ olim Izzat Sulton o‘rnidan dast turib, “Toshpo‘lat yaxshi adabiyotshunos ekaniga amin bo‘ldim”, degan edi.

Olim O‘zbekiston televideniyesi tashkil etilgach, “Teatr ijodxonasida”, “Aktyorlar va rollar”, “Afishalar tilga kirganda” rukni ostida ko‘rsatuvlar tayyorlab, teatr va tomoshabin masalasida jamoatchilik fikrini shakllantirish ishiga munosib hissa qo‘shdi. Teatr va rassomlik institutida muallim bo‘lib ishlash bilan birga, San’at bosh boshqarmasi qoshidagi repertuar – tahririyat hay’atining saylanganida ham olimning ko‘nglida ilmiy ishlarni davom ettirish orzusi kuchli bo‘lgani bois, qalbida milliy teatr san’ati sahifasidan nomlari nohaq o‘chirilgan yoki qoralangan kishilarning faoliyatini teranroq o‘rganish, masalaga atroflicha baho berishga intilish kuchaya bordi va chuqur ilmiy izlanishlar natijasida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Ilmiy tadqiqotida milliy teatr san’atini tashkil etishda mahalliy taraqqiyparvar, milliy madaniyatni rivojlantirish tarafdori bo‘lgan saxovatli millat xodimlarining o‘rni katta ekanini ko‘rsatuvchi dalillarni Moskva hujjatgohlaridan topdi. Afsuski, dastlabki muhokamalardayoq bu hujjatlar sovetlar hukumatining siyosatiga soya soladi, deya ilmiy ishdan olib tashlandi.

Toshpo‘lat Tursunov rektor sifatida Teatr va rassomlik san’ati institutini yanada taraqqiy ettirish maqsadida Makedoniyaning Kirill va Mefodiy nomidagi universiteti, AQSHning Shimoliy Karolina universiteti qoshidagi San’at institutlari, Uyg‘uriston San’at instituti singari ko‘plab muassasalar bilan ijodiy aloqalar o‘rnatdi. Institutda ilmiy ishlar jonlandi.

U faqat teatrshunoslik sohasi bilan cheklanib qolmadi. Dramaturgiya sohasida “Darbadar”, “Alpomish” pyesalarini yozdi. B.Brextning “Bandai gumroh”, “Hamma soldat – bir soldat”, G.Mdivianining “Konsul o‘g‘irlandi”, N.Baerning “Mojaro”, K.Amirovning “Sud oldidan”, I.Afandiyevning “Yaralangan yuraklar” va boshqa asarlarni o‘zbek tiliga o‘girib, tomoshabinlarga taqdim etdi.

Ustozning badiiy tafakkur olami keng edi. “Bolalik kunlarimdan qatra xotiralar” kitobi shunchaki bir xotira emas, balki badiiy qissadek yozilgan. Bu fikrni ko‘pgina kishilardan eshitdim. Ammo domlaning butun olami uning o‘z sohasiga bag‘ishlangan asarlarida mujassam. O‘tgan asr o‘zbek dramaturgiyasi va teatr san’ati rivoji haqidagi monografiyasi, “Sahna va zamon” maqolalar to‘plami, Karim Zaripov haqidagi, “Aka Buxor”, “Turg‘un Azizov” nomli risola va kitoblari, ayniqsa, “XX asr o‘zbek teatri tarixi” darslik-monografiyasi teatrshunoslik sohasidagi muhim asarlardir.

Afsuslar bo‘lsinki, domla ayni yaxshi asarlar yozayotgan bir paytda matbuotda ayrimlarning “xizmati” bilan tuhmat toshi otildi. Ko‘plab kishilar bosilgan g‘iybatni qabul qilmadilar va o‘z xayrixohliklarini bildirib, domlaning ko‘nglini ko‘tarishganiga guvohman. Maxsus tashkilot vakillari to‘plangan hujjatlarni obyektiv o‘rganish jarayonida domlaning aybsiz ekani to‘liq isbotlandi. Ammo bu voqealar ustozning salomatligiga ancha zarar keltirdi.

Toshpo‘lat Tursunov fe’li keng, bilimi teran, qalbi pok inson, mutaxassis sifatida dramaturg, rejissyor, aktyor ijodidan badiiy yangiliklar izlovchi g‘avvos edi. Domlaning 70 yoshga to‘lishi munosabati bilan Teatr san’ati institutida o‘tkazilgan anjumanda O‘zbekiston xalq shoiri Shukrullo so‘z olib, qisqa va nishonga tegadigan xolis bahoni beradi: “Toshpo‘lat halol odam, asar muhokamasida sudya ham, prokuror ham emas, u badiiy ijod kashfiyotchisidir”.

Sirojiddin AHMAD

FORUM

JAHON NIGOHIDA



Shu yil 24–28-avgust kunlari Toshkent va Samarqand shaharlarida “Islom sivilizatsiyasi: yangi nigoh – yangi kashfiyotlar” xalqaro mediaforumi bo‘lib o‘tdi. Miqyosi va geografiyasiga ko‘ra keng qamrovli bo‘lgan mazkur forumda jami 50 mamlakatdan 300 nafardan ortiq mutaxassislar ishtirok etdi.

Xususan, “Euronews” bosh direktori va bosh muharriri Klaus Shtruns, “CNN International” mintaqaviy direktori Imran Ahmad, BBC vakili va “Dars Consulting” direktori Sergey Stanovkin, italiyalik noshir, “Sandro Teti Editore” nashriyoti asoschisi Sandro Teti singari nufuzli mehmonlar tashrif buyurdi. Dasturdan, shuningdek, “Al Jazeera”, “TRT World” va “TRT Avaz” loyihalari taqdimotlari hamda “CNN International Commercial” ijrochi vitse-prezidenti Fil Nelsonning video murojaati o‘rin oldi.

Forumning asosiy konsepsiyasi islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini ochib berish, asrlar davomida shakllangan ilmiy va madaniy merosni zamonaviy media texnologiyalari yordamida keng ommaga taqdim etishdan iborat bo‘ldi. Shuningdek, xalqaro maydonda tez-tez ko‘zga tashlanayotgan stereotiplar va islomofobiya ko‘rinishlariga qarshi ma’rifat va xolis axborot bilan kurashish g‘oyasi kun tartibiga qo‘yildi.

Bugun shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda xolis va tezkor axborotga talab keskin oshmoqda. Bu, o‘z navbatida, jurnalistlar va OAV xodimlaridan yuksak bilim va zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishni talab etyapti. Mamlakatimiz yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilayotgan, ochiqlik va oshkoralik, so‘z va fikr erkinligi hayotimiz mezoniga aylanib borayotgan hozirgi davrda bu mas’uliyat yanada kuchaymoqda. Islom sivilizatsiyasi markazining yangi ilmiy, madaniy, ta’limiy va texnologik tashabbuslarini jahonga namoyon etishda media olamining zamonaviy texnologiyalarini tatbiq etish muhim ahamiyatga ega, albatta.

Mediaforum faqatgina yalpi majlislar va ma’ruzalardan iborat bo‘lib qolmay, ishtirokchilar uchun Toshkent va Samarqand shaharlari bo‘ylab mediaturlar ham tashkil etildi. Islom sivilizatsiyasi markazi hamda Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi qurilishidagi sharqona uslub, raqamlashtirilgan interaktiv kutubxonalar, noyob qo‘lyozmalar jahon olimlarida katta qiziqish uyg‘otdi. Registon maydoni, Shohi Zinda majmuasi va Amir Temur maqbarasi kabi tarixiy obidalarga uyushtirilgan ziyoratlar mehmonlarda unutilmas taassurot qoldirdi. Ko‘plab xorijiy telekanallar ushbu maskanlardan turib, o‘z mamlakatlari uchun maxsus reportajlarni jonli efirga uzatdilar. Ayniqsa, forumning xalqaro spikerlaridan biri Klaus Shtrunsning “Yangi yaqinlik: Yevropa va Markaziy Osiyoni madaniyat, media va g‘oyalar orqali birlashtirish – Islom sivilizatsiyasi markazi global axborot makonida” mavzusida qilgan maxsus ma’ruzasi e’tiborga molik bo‘ldi. Bundan tashqari, “Oskar” mukofoti sovrindori Ben Kingslining O‘zbekiston tarixi, uning buyuk siymolari va mintaqaning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasiga bag‘ishlangan mualliflik filmining premyerasi bo‘lib o‘tdi.

Xalqaro mediaforum Yangi O‘zbekistonning ochiqlik, ma’rifatparvarlik va global muloqotga tayyorligini yana bir bor namoyish etdi. Bu orqali yurtimizning boy madaniy merosi dunyoning millionlab aholisiga zamonaviy media tilida yetkazildi. Bu kabi anjumanlar nafaqat tarixiy haqiqatlarni tiklashga, balki turli madaniyat va sivilizatsiyalar o‘rtasida o‘zaro ishonch hamda hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Jamoliddin BADALOV

TARIX VA TAQDIR



MUSA JALILNING QARSHILIK DO‘STI

Tatar xalqining ulug‘ shoirlaridan Musa Jalilning jasoratga yo‘g‘rilgan hayoti va ijodiy faoliyatidan xalqimiz yaxshi xabardor. Ayniqsa, shoirning Ikkinchi jahon urushi yillaridagi tutqunlikda yozilgan “Maobit daftari” kitobiga kiritilgan quyidagi satrlar el orasida juda mashhur bo‘lib, hofizlar tomonidan kuylangan:

Senga mendan xabar bersalar,
“U yiqildi charchab”, desalar,
Yo‘q, ishonma, bag‘rim!
Bu so‘zni –
Do‘stlar aytmas, yaqin ko‘rsalar.

Taqdir deganlari qiziq-da, 1906-yilda olis shimolning Mustafin qishlog‘ida tug‘ilgan Musa va 1919-yilda Qarshi shahrining Chaqar mahallasida tug‘ilgan Habibning hayot yo‘li kesishadi, deb kim o‘ylabdi.

* * *

1939-yilda yigirma yoshli Habib Fayzullayev harbiy xizmatga chaqiriladi. Burchini o‘tagan askar uyga qaytishiga sanoqli oylar qolganida mash’um urush boshlanadi. Ularning harbiy bo‘linmasi dushman bilan Tripolida to‘qnashadi. Omonsiz janglarning birida snaryad parchasi Habibning o‘ng oyog‘ini majaqlab tashlaydi, hushiga kelganida esa asirga olinganini ko‘radi. U va boshqalar Lvov shahridagi harbiy lagerga olib kelinadi. Bu yerda guvohi bo‘lgan ilk manzara – xuddi o‘tin kabi taxlab qo‘yilgan jasadlar edi... Keyingi yillarda ularning ham o‘liklardan farqi qolmaydi, faqat nafas olardi, xolos. Mahbuslarni 1943-yilning qishida Berlin yaqinidagi Vistrau lageriga ko‘chirishadi. O‘sha yerda Habib Muso Gumirov bilan tanishadi. Keyinroq uning lagerdagi yashirin tashkilot rahbari va asl ismi Musa Jalil ekanini biladi. Mashhur shoir familiyasini fashistlardan yashirgan edi.

Habib she’riyatning shaydosi bo‘lgani bois, o‘zining yangi mashqlarini Musa Jalilga ko‘rsatadi. Shoir quyidagi she’rini tahrir qilib beradi:

Kulma, ey dushman! Uzoq cho‘zilmas
Boshimga tushgan baxtsiz kunlarim.
Haqiqat ustuni hech qachon qulamas,
Yorug‘likka chiqar zulmatli tunlarim..

Eng og‘ir damlarda Musa Jalil yosh Habibni ruhan sinmaslikka undar va uni “inim” deb chaqirardi. Ming afsuski, kunlarning birida ayg‘oqchilar tashkilotdan xabar topadi. Musa Jalil 1945-yil fevral oyining oxirlarida lagerdan olib ketiladi va qiyin-qistovlardan keyin qatl etiladi. Do‘sti va ustozining o‘limi haqida Habib Fayzullayev faqatgina urushdan so‘ng eshitadi...

* * *

AQSH qurolli kuchlari lagerda omon qolgan mahbuslarni ozod etib, Frankfurt shahridagi sovetlarning maxsus bo‘lim xodimlariga topshiradi. Maxsus vagonlarga joylangan mahbuslar uzoq shimoldagi Komi o‘lkasi Kochles posyolkasiga olib kelinadi. Qiynoq va xo‘rliklar qaytadan boshlanadi. 1948-yilda “uchlik” harbiy tribunali Habib Fayzullayevga 25 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosini berdi. Aybi – urushda asir tushgani edi. Hukmdan so‘ng yana uch oy umumiy turmada saqlanadi. So‘ngra Inta shahriga, maxsus og‘ir rejimli lagerga jo‘natiladi. Asirlarni 250 metr chuqurlikdagi ko‘mir konida ishlatadilar.

U bir necha bor yuqori idoralarga “men sotqin emasman” mazmunida shikoyat xati yozadi. Lagerdan xat jo‘natish azob edi. Mahbuslarning uylariga yozgan xatlari ham yo‘q qilib yuborilardi. Ammo kunlarning birida unga “Kuting, ishingizni qayta ko‘rib javob yozamiz”, degan xat keladi. Stalin o‘limidan so‘ng ishi qayta ko‘rilgan Habib Fayzullayev muddatidan ilgari ozodlikka chiqdi.

Nobel mukofoti sovrindori A.Soljenisinning “GULAG arxipelagi” va O‘zbekiston xalq shoiri Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar” asarlarini o‘qib chiqqan Habib Fayzullayev: “Biz ko‘rgan azoblar bundan battar edi. Tirik qolish uchun o‘lgan odamlarning go‘shtini yeganlarni, sovuqqa chidolmay, kafansiz ketgan minglab odamlarni ko‘rdim. Jonim temir ekanmi, uch yillik tergov azoblaridan omon chiqdim. Tergovda menga xoin degan tamg‘ani bosmoqchi edilar. Lekin biror-bir xiyonatni isbotlay olmadilar”, degan ekan.

* * *

Habib “yurtga qaytdim, endi Vatan uchun, xalqim uchun xizmat qilaman”, deb o‘ylagan edi. Afsuski, uning qaytishi ayrim “hushyor”larni xursand qilmadi va qayerga ish so‘rab borsa, “vatan xoini” sifatida qaradilar. Shundan so‘ng u Arxangelskiy harbiy mahkamasiga xat yozishga majbur bo‘ldi. Xatda uni hech qayerga ishga qabul qilishmayotgani, barcha eshiklar u uchun yopiq ekani bayon qilingan edi. Ko‘p o‘tmay Arxangelskdan Qashqadaryo viloyatiga javob keladi. Xatda H.Fayzullayevning aybsiz ekani, unga nohaq ayblov qo‘yilgani yozilgan edi. Bu xat Habibga ishga joylashishi uchun asos bo‘ldi. U urushdan oldin ishlagan maktabda o‘qituvchilik kasbini davom ettirdi. Keyin esa naq 40 yil savdo sohasida faoliyat ko‘rsatdi.

* * *

Habib Fayzullayev hayotida atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov bilan uchrashuv unutilmas voqea bo‘lib qoladi. 1976-yil paxta yig‘im-terimining qizg‘in pallasi edi. “Qarshistroy” boshqarmasi boshlig‘i Sulaymon Murodov unga qo‘ng‘iroq qilib, Birinchi kotib cho‘lquvarlar bilan uchrashish uchun kelayotgani, tayyorgarlik ko‘rib qo‘yish lozimligini aytadi. Kech soat sakkizlarda Sharof Rashidov viloyat rahbarlari bilan birga dasturxon atrofiga o‘tiradi. Habib xizmatda edi. Sulaymon Murodov Habib haqida Sharof Rashidovga aytgan ekan. Sharof aka uni yoniga chaqiradi. “Siz Musa Jalil bilan fashistlar konslagerida birga bo‘lganmisiz?” – deb so‘raydi. Habib Fayzullayev boshidan o‘tgan dahshatli kunlarni qisqa qilib gapirib beradi.

Sharof Rashidov fashistlarning o‘lim lageridan tirik qolib Vatanga qaytish, to‘qqiz nafar farzandning otasi bo‘lish, Qarshi cho‘lini o‘zlashtirishda hissa qo‘shish – bularning o‘zi bir qahramonlik, deya hurmat ko‘rsatadi. Shu tariqa, yaxshi insonning sharofati tufayli, hali ham unga bo‘lgan “ishonchsiz”lik muammolari yechim topadi. U yillar o‘tib nafaqaga chiqqach, bir necha yil o‘zi voyaga yetgan Chaqar mahallasi raisi vazifasida faoliyat olib boradi.

U o‘tmishini, boshidan o‘tkazgan mudhish kunlarda yonida yelkadosh bo‘lgan do‘sti Musa Jalilni unutmadi. Shoir yashagan yurtga bir necha marotaba bordi. Uning yaqinlarini ziyorat qildi. Shoirning singlisi Xadicha opa bilan aka-singil tutinib, do‘stona munosabat o‘rnatdi. Bir necha yillar davomida oilaviy bordi-keldini uzmadi. Musa Jalilning turmush o‘rtog‘i va qizi Cho‘lpon bilan tanishdi. Musa Jalilning 70 va 80 yillik tavallud kunlariga qatnashib, Qozon va Orenburgdagi tadbirlarda shoir haqidagi xotiralarini so‘zladi. Tatar xalqini shoirning so‘nggi kunlaridagi voqealardan xabardor qildi.

Habib Fayzullayev O‘zbekiston mustaqillikka erishgan, ozod va obod yurtning qaddi yuksalgan kunlarga guvoh bo‘ldi, 1994-yil “Jasorat” medali bilan taqdirlandi. 88 yoshida vafot etdi. Uning “Sabr bilan yengdim o‘limni” kitobidagi ijod namunalari urush va qatag‘on iztiroblaridan so‘zlaydi.

O‘rolboy QOBIL

TILAK

YANGI DAVR ISLOHOTLARI

Muhtaram Prezidentimiz yaqinda “Har bir talaba o‘ziga yarasha iqtidor egasi, masalan, u injenerlik bo‘yicha o‘qir, shu bilan birga, yaxshi ashula aytishi mumkin, ularning iste’-dodiga imkoniyat beraylik”, dedi. Bu ezgu tashabbus ijrosining bir ko‘rinishi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda “Jadid” gazetasi tahririyati bilan o‘tkazilgan “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” mavzusidagi ijodiy ishlar tanlovi bo‘ldi. Fursatdan foydalanib, ushbu tanlov g‘olib va sovrindorlarini samimiy qutlayman. Barcha ishtirokchilarga minnatdorlik bildiraman.

Ochig‘ini aytish kerak, ijodiy ishlar tanlovi bo‘lgani uchun uloq ko‘proq til va adabiyot sohasida, jurnalistika yo‘nalishida o‘qiydigan talabalarda ketadi, degan samimiy xavotir ham bor edi. Ammo natijalar e’lon qilingach, ayon bo‘ldiki, Vatanni sevish, bir xalq bo‘lish va yagona maqsad atrofida jipslashish soha tanlamas ekan. G‘oliblar safida bo‘lajak shifokorlar, muhandislar, iqtisodchilar, diplomatlar, pedagoglar va san’at ahli borligini ko‘rib chin dildan quvondim. Demak, Vatanimiz kelajagi ishonchli qo‘llarda!

Fursatdan foydalanib, tanlovning barcha g‘olib va ishtirokchilarini, ularga ilhom bergan fidoyi ustozlarni hamda butun xalqimizni eng ulug‘, eng aziz ayyom – O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining qutlug‘ 35 yillik bayrami bilan chin qalbdan muborakbod etamiz!

Mustaqilligimiz abadiy, yurtimiz tinch, xalqimiz omon, ijodkor yoshlarimizning parvozi hamisha baland bo‘lsin! Ko‘hna va navqiron O‘zbekistonimizda yangi hayot va buyuk kelajakni birgalikda yaratishda bardavom bo‘laylik!



Qo‘ng‘irotboy SHARIPOV,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

TANLOV YAKUNLANDI

Mamlakatimizda yosh avlodning ijodiy fikrlashi va badiiy tasavvurini kengaytirish, ularning qalbi va ongida Vatanga mehr-u muhabbat, mustaqillik g‘oyalariga sadoqat tuyg‘ularini yuksaltirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi g‘oyalarini keng targ‘ib etish, muqaddas Mustaqilligimizning qutlug‘ 35 yilligi arafasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar sarhisobini ijodkorona tavsiflash hamda milliy qadriyatlarimizni badiiy talqinda namoyon etish maqsadida talabalar o‘rtasida “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” mavzusidagi ijodiy ishlar tanlovi tashkil etilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda “Jadid” adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy gazetasi tahririyati hamkorligida o‘tkazilgan, qariyb o‘n mingga yaqin ishtirokchini qamrab olgan ushbu tanlov o‘ta qizg‘in ijodiy raqobat ostida kechdi. Taqdim etilgan ishlarni xolis va adolatli baholash maqsadida taniqli shoir va yozuvchilar, malakali pedagog-olimlar, adabiyot va san’at sohasi vakillaridan iborat nufuzli hakamlar hay’ati tuzildi. Uch bosqichdan iborat bo‘lgan saralash jarayonlaridan so‘ng, g‘oliblar aniqlandi.

QUYIDA YAKUNIY NATIJALAR VA G‘OLIBLAR RO‘YXATINI E’LON QILAMIZ:

1-O‘RIN (bir nafar)

Sabohat Husanova – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi *(Surxondaryo viloyati).*

2-O‘RIN (ikki nafar)

Nigina Hojiqurbonova – Toshkent davlat tibbiyot akademiyasi talabasi *(Xorazm viloyati).*

Bayjol Baxit – O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi *(Qoraqalpog‘iston Respublikasi).*

3-O‘RIN (uch nafar)

Dilyara Umerova – Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi *(Jizzax viloyati).*

Laziza Nomozova – Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi *(Qashqadaryo viloyati).*

Bibijon Saibbayeva – Urganch davlat universiteti talabasi *(Xorazm viloyati).*

RAG‘BATLANTIRUVCHI O‘RINLAR:

Abror Ahmedov – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi *(Qashqadaryo viloyati).*

Aysedora Alimova – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi *(Qoraqalpog‘iston Respublikasi).*

Anora Shokirova – Toshkent davlat transport universiteti talabasi *(Toshkent viloyati).*

Afzalbek Yo‘ldoshev – Toshkent davlat tibbiyot akademiyasi talabasi *(Namangan viloyati).*

Gulnozaxon Ne’matova – O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi talabasi *(Andijon viloyati).*

Jasur To‘qsonov – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi *(Sirdaryo viloyati).*

Zilola Begimqulova – Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi *(Jizzax viloyati).*

Ma’murjon Jumanazarov – Toshkent kimyo-texnologiya instituti talabasi *(Namangan viloyati).*

Muborak Hayitnazarova – Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi *(Surxondaryo viloyati).*

Oygul Komilova – Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti talabasi *(Farg‘ona viloyati).*

Ruksana Jaffer – Buxoro davlat tibbiyot instituti talabasi *(Hindiston).*

Fotima Qo‘ziyeva – Toshkent davlat tibbiyot akademiyasi talabasi *(Qashqadaryo viloyati).*

Shahrizoda Husenova – Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti talabasi *(Samarqand viloyati).*

Shahnoza Rayimova – Farg‘ona davlat universiteti talabasi *(Farg‘ona viloyati).*

Shahnoza Yangiboyeva – O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi *(Surxondaryo viloyati).*

G‘OLIB – TOLIBLAR

Qo‘ng‘irotdan Xonobodgacha

Har bir inson hayotida shunday maskan borki, uni boshqa hech bir joy bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Bu – Vatan. U inson tug‘ilgan joy, bolalik xotiralari, ota-ona mehri, ona tili va ajdodlar merosi bilan chambarchas bog‘liq. Ammo Vatan faqat tug‘ilib o‘sgan ko‘cha yoki mahalla bilan chegaralanmaydi. U keng tushuncha. Men uchun bu tuyg‘u Qoraqalpog‘istonning keng adirlaridan tortib, butun O‘zbekiston bilan uyg‘unlashadi.

Men Qo‘ng‘irot tumanidanman. Garchi Almati shahrida tug‘ilgan bo‘lsam ham bolalik xotiralarimdan tortib eng shirin damlarim aynan Qoraqalpog‘istonda, o‘zbek va qoraqalpoq do‘stlarim bilan birga o‘tgan. Bugun voyaga yetgan hududimga nazar tashlar ekanman, undagi o‘zgarishlarni ham Vatan taraqqiyotining bir ko‘rinishi sifatida qabul qilaman. Xususan, Qo‘ng‘irot tumaniga kiraverishdagi hududning yangilanib, chiroyli qiyofa kasb etayotgani kishida yaxshi taassurot uyg‘otadi. Kecha tanish bo‘lgan manzaraning bugun obod va ko‘rkam tus olayotgani yurtimizdagi yangilanishlarning bir misolidir.

Bunday o‘zgarishlarni mamlakatimizning turli hududlarida ham ko‘rish mumkin. Bir joyda yangi maktab va bog‘cha qad rostlaydi, boshqa hududda yo‘l va infratuzilma yaxshilanadi, yana bir manzilda yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi. Ularning barchasini inson uchun munosib hayot yaratishdek ulug‘ maqsad birlashtiradi. “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz” degan g‘oya ham aynan shu ma’noni anglatadi.

Yaqinda “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va “Anor” loyihasi hamkorligida tashkillashtirilgan tadbir doirasida xorijda yashayotgan yosh vatandoshlar bilan muloqot qilish imkoniga ega bo‘ldim. Ularning hayoti va dunyoqarashi turlicha bo‘lsa-da, Vatan haqidagi fikrlarida umumiy birlik bor. Kim uchundir O‘zbekiston ota-onasi hikoya qilib bergan yurt, kim uchundir ajdodlari tug‘ilgan zamin. Ammo ularning barchasini O‘zbekiston nomi birlashtiradi. Shu jihatdan “Yagona xalq” degan tushuncha bir xil fikrlash degani emas. Bu turli qarash, turli hudud va turli hayot tarziga ega insonlarning umumiy maqsad yo‘lida birlashishidir.

Qoraqalpog‘iston ham ana shu katta oilaning ajralmas qismidir. Uning o‘ziga xos tabiati, madaniyati va qadriyatlari O‘zbekistonning umumiy boyligini yanada rang-barang qiladi.

Bugun Qoraqalpog‘iston haqida gapirganda, uning yoshlarini ham alohida tilga olish kerak. Chunki Vatanning kelajagi bilimli, tashabbuskor va katta maqsadlar sari intilayotgan avlod bilan bog‘liq.

Buni qoraqalpog‘istonlik Hurliman Kalibayeva misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Uning AQSHdagi Mari Bolduin universitetining to‘rt yilda faqat bir da’vogarga beriladigan 250 ming dollar miqdoridagi grantni qo‘lga kiritgani keng jamoatchilik e’tiborini tortdi. Bu yutuq uning shaxsiy muvaffaqqiyati bo‘lishi bilan birga, Qoraqalpog‘iston yoshlarining salohiyatini ham namoyon etadi.

Eng muhimi, bunday natijalar boshqa yoshlar uchun ham ilhom manbayi bo‘ladi. Bir insonning yutug‘i ortidan yana ko‘plab yoshlar o‘z oldiga katta maqsadlar qo‘yishi mumkin. Yurtimizning har bir hududida ana shunday intiluvchan yoshlar ko‘paygani sari umumiy kelajagimiz ham mustahkamlanadi.

Bugun oldimizda turgan vazifa – o‘zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlash, yosh avlodga munosib sharoit yaratish va yurtimizning har bir hududini birgalikda rivojlantirishdir.

Qoraqalpoq farzandi sifatida shuni mamnuniyat ila ayta olamanki, har bir yaxshi o‘zgarishni O‘zbekistonning umumiy taraqqiyoti bilan bog‘layman. Qo‘ng‘irotning yangilanayotgan qiyofasi ham, qoraqalpog‘istonlik yoshlarning xalqaro yutug‘i ham, mamlakatimizning boshqa hududlaridagi bunyodkorliklari ham bitta maqsadga – xalqimiz uchun farovon hayot yaratishga xizmat qiladi.

Zero, yagona Vatan – umumiy taqdirimiz. Yagona xalq – umumiy kuchimiz. Yangi hayot va kelajak esa barchamizning birgalikdagi mehnatimizdir.

Bayjol BAXIT,
O‘zJOKU talabasi.
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi).

“Bori elga yaxshilig‘ qilg‘il...”

2022-yilning fevral oyi edi. Ukrainada tibbiyot yo‘nalishining birinchi bosqichida tahsil olardim. Ammo bir kechada kelajakka bo‘lgan umidlarim va rejalarim jiddiy sinovga duch keldi. O‘sha paytda, to‘g‘risi, O‘zbekiston haqida faqat umumiy ma’lumotlarga, uning betakror milliy taomlari, tarixiy bayramlari va qadimiy shaharlari haqidagi iliq tasavvurlarga ega edim, xolos. Biroq bu zaminning asl boyligi bo‘lgan bag‘rikeng insonlar meni qanday kutib olishi, taqdirim nechog‘li o‘zgarishini tasavvur ham qila olmasdim. Yuragimdagi xavotir-u ikkilanishlarga qaramay, taqdir meni ushbu muqaddas zaminga yetakladi va bu hayotimdagi eng to‘g‘ri qadam bo‘lib chiqdi.

Keldim… Hech qachon yodimdan chiqmaydigan bir go‘zal voqea bor. Hayit arafasida do‘stlarim bilan do‘konga kirgandik. Kassada hisob-kitob qilayotganimizda bir nuroniy onaxon biz sezmagan holda mahsulotlarimiz uchun pul to‘lab qo‘yibdilar. Hayron bo‘lib, rahmat aytmoqchi bo‘ldik. Onaxon esa mehr bilan tabassum qildilar. Keyin: “Musofir talaba ekansizlar. Yaxshilik ko‘rgan inson, yaxshilik bilan javob qaytaradi...” dedilar-u, duo qilib yo‘llarida davom etdilar. O‘sha lahzadan bu zaminga bo‘lgan mehrim bo‘lakcha...

Buxoro davlat tibbiyot institutidagi o‘zbek ustozlarim meni hamisha qo‘llab-quvvatlab kelishdi va hech qachon musofir ekanligimni bildirishmadi. Ular darslardan keyin ham vaqt ajratib, tushunmagan mavzularimni erinmay tushuntirishdi. Mas’uliyatli imtihonlar oldidan esa “Qo‘rqma, albatta, uddalaysan” deb menga ishonch bildirishdi. Bu oliyjanob g‘amxo‘rlikni butun umr unutmayman.

Bir kuni hamsaboqlarim bilan sun’iy intellekt bo‘yicha o‘z g‘oyamizni ingliz tilida taqdim etishimiz kerak bo‘ldi. Xonaga kirganimda hayajondan qo‘llarim titrardi, chunki bu til mening ona tilim emasdi. Gapira boshlaganimda, hech kim mening til bilan bog‘liq xatolarimga e’tibor qaratmadi, hech kim fikrimni bo‘lmadi. Aksincha, meni diqqat va hurmat bilan tinglashdi. O‘sha kuni men birinchi marta o‘zimni shunchaki qabul qilingan mehmon emas, balki shu yurtning kelajagini bunyod etayotgan jamoaning ajralmas bir qismi sifatida his qildim.

“Bitta ip arqon bo‘lmas”, deydi dono xalq. Bunday ip nozik va zaif bo‘lib, shubhalar, yolg‘izlik va mag‘lubiyat xavotiri ostida osongina uzilishi mumkin. Ammo u boshqa iplar bilan birlashganda, butun bir kelajakni yorug‘likka tortib chiqara oladigan mustahkam arqonga aylanadi. O‘zbekistonga kelganimda yolg‘iz bir ip kabi edim, biroq bu bag‘rikeng yurtning mehrli qo‘llari meni o‘z bag‘riga olib, mustahkam bir butunlikning uzviy qismiga aylantirdi.

Vaqt o‘tishi bilan o‘zbek xalqining boy madaniyati, ko‘hna tarixi va go‘zal qadriyatlariga qalban chuqur bog‘lanib qoldim. Bu tabarruk zamin men uchun shunchaki vaqtinchalik maskan emas, balki chin ma’noda ikkinchi Vatanimga aylandi. Ba’zida qalbimdagi begonalik tuyg‘usi naqadar tez g‘oyib bo‘lganiga hayratlanaman. Bu yurt meni shu qadar yaqin oldiki, o‘zimni xuddi hech qachon musofir bo‘lmagandek, azaldan shu zamin farzandidek his etaman.

Kelajakda shifokor bo‘lib, o‘zim ko‘rgan bu mehr-oqibatni odamlarni davolash orqali qaytarishni orzu qilaman. Balki bir kun kelib, mana shu yurtda men ham kimningdir hayotiga umid olib kirarman va o‘sha kuni bir onaxon menga o‘rgatgan yaxshilikni boshqalarga qaytararman. Qayerda bo‘lishimdan qat’i nazar, yuragimning bir qismi doim shu yerda qoladi.

Ruksana JAFFER,
Buxoro davlat tibbiyot instituti talabasi
(Hindiston).

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 454
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 877
Lotin yozuvida – 11 577
Media kuzatuvchilar – 91 497
Buyurtma: G – 840
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov
Navbatchi muharrir:
Muhayyo Rustamova
Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 23:10

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI